

## Kalavanning uchi qayerda?

Yoxud Bekobodagi ayrim maktab o'qituvchilari soxta diplom bilan ishlayotgani haqida



2-bet

## 5-sinf mavzusini 3-sinfga ko'chirishdan maqsad nima?

Hozir 3-sinfda o'rganilayotgan kasr son tushunchasi ilgari 5-sinf dasturida edi. 3-sinf o'quvchilari 5-sinf dasturini qabul qiladigan darajada diqqat-e'tiborga ega emas.

7-bet



Ta'limning sifati va samarasi aslida nimaga bog'liq? 8-9-betlar

Kuch — bilim va tafakkurda

# Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2020-yil 19-avgust, chorshanba № 29 (9302)

Xalq ziyolilari gazetasi

Mushtariy muhokamasi

## Boshlang'ichda soxta baho qo'yiladimi

yoki yuqori sinflarda ta'lim sustmi?



Ta'lim turli bosqichlarga bo'linsa-da, ular orasidagi uzviylikka hech qachon putur yetmasligi zarur. Boshlang'ich va yuqori sinf ta'limi bir-birisiz hech qachon mukammallik kasb etolmaydi. Shu sabab bu ikki bosqich pedagoglari hamisha bir-birlari bilan hamkorlikda ishini tashkil etishlari talab etiladi. "Telegram"dagi "Marifat" mushtariylari" guruhimizda boshlang'ich va yuqori sinf ta'limiga taalluqli bo'lgan muammolar haqida qizg'in bahslarga guvoh bo'ldik. Bu bahslar zamirida zarur haqiqatlar, eslab qolish lozim bo'lgan fikrlar aytiladi.

3-bet

Bizni internetda ham kuzating! [www.marifat.uz](http://www.marifat.uz) [/marifat.uz](https://www.facebook.com/marifat.uz) [@marifatziyo](https://www.instagram.com/marifatziyo)

Xushxabar

## O'n karra talabalik baxti



4-bet

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



Soxtalikka toqatim yo'q... Ta'limda juda ham ko'payib ketdi yuzakilik. Ko'chadan o'tib ketayotgan bolani "tutib" olib, maktab hovlisiga olib kirib, videoga olib "biznesmenlar" lichkasiga yuborib, "Telegram"dagi "onlayn maktab" kanaliga joylayotgan ustozlarni ham ko'rdim...

Azizbek IKROMOV

Korrupsiyadan nafratlanish va halollikni bolalarimiz ongiga muhrlashimiz kerak. Shogirdlarimdan ikki nafari Davlat xavfsizlik xizmatida boshqarma boshlig'i, bittasi tuman prokurori, yana biri viloyat prokurori bo'lib ishlayapti. Halol ishlamagan bir-ikkita esa hali ham hayotda o'z o'rmini topolgan yo'q.

Normamat ESHONQULOV

O'quvchilarni 5-sinfdan buyon "Bilimlar bellashuvi" va fan olimpiadasida ishtirok etadi, ammo doim undagi "o'yinlar" tufayli o'rin ololmas edi. Nihoyat 11-sinfda onlayn fan olimpiadasining respublika bosqichida 3-o'rinni egalladi.

Gulnora FARMONOVA

Maktablarning 50 foiz bitiruvchisi talaba bo'lishi kerak emish... Oliy ta'limning yillik qabul kvotasi miqdorini solishtirib ko'rsak, bitiruvchilarimizning zo'rg'a 25 foiziga to'g'ri keladi. Nega o'qituvchilarning boshini qotirib 50 foiz deyishadi. Hisobni to'g'ri olishmaydimi? Ertaga yana kaltak o'qituvchining boshida sinadi.

Botir KARIMOV

Shu yilning 26-iyun kuni SamDU rektori Rustam Xolmurodov Xalqaro press-klub sessiyasida "Tamagirik qilyotgan o'qituvchini ishdan boshata olmayman, tizim shunaqa", deb ochiq aytdi. Bu jamiyatimizda adolatning oqsaganiga misol. Oliy Majlis Senati a'zosi va Termiz davlat universiteti rektori Abduqodir Toshqulov esa "Oliy ta'limda nafaqat korrupsiyaga yo'l qo'yiladi, balki talabalarga korrupsiya o'rgatiladi", degan edi.

## Kalavanning uchi qayerda?

### Yoxud Bekobodagi ayrim maktab o'qituvchilari soxta diplom bilan ishlayotgani haqida

Bizga komil insonni tarbiyalash topshirilgan. Biroq o'zimiz firibgar-u muttaham bo'lsak, biz o'qitgan o'quvchilardan nimani kutish mumkin?!

Tumanimizda 58 ta maktab bo'lsa, direktorlarning muayyan qismi sohasi bo'yicha jismoniy tarbiya yoki mehnat ta'limi o'qituvchisi. Oralarida biryo'la 3 ta diplom olgan direktorlar ham bor. Ajabki, o'sha diplomni bergan shaxs "notanish". Fikrim isboti sifatida 2019-yil 7-martda Bekobod tuman IIB boshlig'i podpolkovnik U.Jo'rayev tomonidan imzolangan xatdan aynan parcha keltirsam: "Bekobod tumani Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 12-sonli umumta'lim maktabi direktori Mirzaev Nazir Nabijonovichga Toshkent davlat pedagogika instituti tomonidan berilgan V №127380-sonli "BAKALAVR" diplomining Toshkent davlat pedagogika institutining diplomlarni qayd etish jurnali ro'yxatidan o'tmaganligi yuzasidan Bekobod tumani Adliya bo'limi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar o'rganib chiqilganda, N.N.Mirzaevga taqdim etilgan mazkur diplom Toshkent davlat pedagogika instituti devonxonasida ishlovchi notanish shaxs tomonidan berilganligi aniqlangan".

Bir paytlar o'z lavozimiga, burchiga sodiq kishilarga tumanimizdagi maktablarning ayrimlarida kamida bittadan Toshkent davlat pedagogika instituti (Angren davlat pedagogika instituti)ning qalbaki diplom borligini isbotlash qiyin bo'lmagandi.

Yana bir holatga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Bekobod tumanidagi 10-maktabning biologiya fani o'qituvchisi I.G.'aybullaev va shu maktabning tarix fani o'qituvchisi M.Kenjaye va nomiga berilgan diplomlarning berilishi to'g'risida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tomonidan berilgan ma'lumotlar bilan tanishib chiqib bildimki, universitet prorektori Dilshod Ergashev imzosi bilan chiqqan hujjatlar qonun-qoidalarga zid. Masalan, I.G.'aybullaev Nizomiy nomidagi TDPUNing sirtqi bo'limida 1989-1994-yillarda o'qigan deyilsa, diplom ilovasida 1988-1994-yillarda o'qigan ko'rsatilgan. Shuningdek, prorektor D.Ergashevning 2018-yil 10-avgustdagi 02-07-2293/02-sonli ma'lumotnomasida yozilishi-



cha, "I.G.'aybullaevning diplom ilovasi yo'qolganligi, universitet arxivida ushbu fuqaroning hujjatlar jildida diplom ilovasi mavjud bo'lmaganligi sababli, unga o'quv rejasidagi fanlar bo'yicha o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkich ballari belgilangan holda diplom ilovasi dublikati I.A.G.'aybullaev roziligi bilan tayyorlab berilgan". Shu tariqa 39 ta fandan barchasi "3" qo'yilgani hech qaysi me'yorga to'g'ri kelmaydi. Aslida, diplom ilovasidagi baholar "vedomost" dan ko'chiriladi. Kamiga, diplomda "Nizomiy" so'zining ikkita xato bilan yozilishini qanday tushunish mumkin?! Bundan tashqari, ayni shu ma'lumotnoma (№02-07-2293/02-sonli) da o'quv rejadagi fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirmagan talabalarga diplom berilmaydi deyilgan bo'lsa-da, mazkur universitet tomonidan 1998-yilda 226004 raqami bilan Mukarram Kenjayevga berilgan diplom va uning ilovasida 49 ta fandan 23 tasi baholanib, 26 tasi umuman baholanmaganini hamda diplomda talabani o'qishga kirgan yili yozilmay, ilovadagi yillar bo'yab tashlanganini qanday izohlash mumkin?! 1989-yili shu guruh (Mukarram Kenjayeva o'qigan guruh)ga 17 nafar talaba qabul qilinib, 1994-yili shu guruhni 42 nafar talaba bitirgan. Ularning qay tartibda qabul qilinishi to'g'risida esa hech qanday ma'lumot yo'q!

Men mas'ul idoralardan Nizomiy nomidagi TDPUN prorektori D.Ergashev tomonidan tasdiqlangan va Bekobod tuman adliya bo'limi boshlig'i, yuridik fanlar nomzodi Birodar Rahimov bilan birgalikda yiqqan hujjatlarimizni o'rganib, qonun doirasida xulosa chiqarishini so'rayman.

Abdusalom SATTOROV,  
Bekobod tumanidagi  
10-maktab direktori

### Taklif

## Yangilik va izlanishdan tolmaylik

Ilgari o'qituvchilardan o'ttizdan ortiq hujjatlar talab qilingani bor gap. Pedagoglar bu qog'ozbozlikni joyiga qo'yish bilan band bo'lib, o'z ustida ishlashga umuman vaqt topmasdi. Agar o'qituvchi o'z ustida doimiy ishlamasa, fanga oid yangiliklardan muntazam boxabar bo'lib turmasa, o'z faniga oid yangi innovatsion qo'llanmalar yaratmasa, o'quvchilarga ham ijobiy ta'sir ko'rsata olmaydi.

Hozir maktablarda o'qituvchilardan dars va to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish hamda sinf jurnalini yuritishdan tashqari boshqa pedagogik yuklamalar bo'yicha hisobot va qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilish qat'iy an taqiqlandi. Bu fan mavzusi ustida to'liqroq ishlashimizga zamin yaratib berdi.

Deyarli har oyda turli oliy ta'lim muassasalarida respublika va xalqaro ilmiy konferensiyalar tashkil etilayotganini ko'ramiz. Bu iqtidorli o'qituvchilar o'z ustida ishlashi, o'zi yaratgan yangi metod va ilmiy yangiliklarni ommalashtirishiga yordam beradi. Bu esa o'z-o'zidan ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu ilmiy konferensiyalarga nafaqat oliy ta'limda faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanish olib borayotgan olimlar, magistr, talabalar, balki umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar ham o'z ilmiy yangiliklari, o'quv qo'llanmalari, maqolalari bilan qatnashib kelishmoqda. Bunday ilmiy konferensiyalar nafaqat oliy ta'lim muassasalarida, balki umumta'lim maktablarida ham tez-tez o'tkazilishi lozim. Chunki maktablarda ham o'z fanining jonkuyari, fidoyi, iqtidorli, izlanuvchan, yangiliklar yaratadigan o'qituvchilar talaygina. Ularning aksariyati respublikamizning turli hududlarida tashkil etilayotgan ilmiy konferensiyalardan bexabar qolmoqda. Agar umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ham tuman, viloyat, va albatta, respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari tashkil etilsa, birinchi navbatda, o'z-o'zidan o'qituvchi o'z ustida doimiy izlanadi, konferensiya orqali qandaydir bir yangilik oladi va ushbu yangilik orqali o'zi yaratayotgan ilmiy ishni rivojlantirish va takomillashtirishiga zamin yaratiladi. Qolaversa, ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning ham bilimi oshadi. Sababi, ilmiy konferensiya orqali o'qituvchi qandaydir bir yangilik yoki metodni o'rgangan bo'ladi. Bu bilan hududlararo o'qituvchilar o'rtasida o'zaro sog'lom raqobat yuzaga keladi, va albatta, yaxshi hamkorlik yo'lga qo'yiladi. O'qituvchilar o'z fikrlari bilan o'rtoqlashadi. Agar ahamiyat beradigan bo'lsak, oddiy tuman miqyosida muayyan fanga bag'ishlangan seminar qatnashgan o'qituvchilar bilan suhbatlashsangiz, "Ushbu seminar qandaydir yangilik olib qaytdim va bu yangilikni o'z darsimda qo'llayman" deb javob qaytarishadi. Bunday tadbirlar faqat bir seminar, xolos, agar aniq bir fan bo'yicha ilmiy konferensiya tashkil etiladigan bo'lsa, yanada ko'proq yangilik bo'lishi aniq.

Ibrohimjon BO'LISHEV,  
Izboskan tumanidagi  
40-maktab o'qituvchisi

## O'qituvchida ish reja va konspekt bo'lmasa...

2020-yil 29-iyunda Adliya vazirligidan 3058-1 raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik mutaxassisliklari bo'yicha namunaviy yillik ish rejasini shakllantirish tartibiga o'zgartirish kiritilib, 2020-2021-o'quv yilidan o'qituvchilar yuritadigan hujjatlar soni bittagacha qisqartirilgan ekan. Fan o'qituvchilarning ish rejalarini bir xil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi, deyilibdi.

Xalq ta'limi tizimida o'qituvchilar manfaatini o'ylab qilinayotgan ishlar tahsinga loyiq. Bundan minnatdormiz, ammo fan o'qituvchisi o'zi ish reja tuzib, konspekt yozmasa, qanday uni o'qituvchi nomiga munosib ko'ramiz? Har bir fan o'qituvchisi o'zi dars berayotgan sinfdagi o'quvchilarning bilim-salohiyatini yaxshi biladi hamda o'zining taqvim-ish rejasini shunga moslab tuzadi. Ish reja tuzishda murakkab bo'lgan mavzularni soatga bo'lib chiqadi, sababi, o'qituvchi o'quv rejaga 15 foizgacha o'zgartirish kiritishi mumkin deyilgan. Ikkinchidan, o'qituvchilarning salohi-

yati, dars o'tish metodi turlicha. Fan o'qituvchilari mavzularni o'ziga moslab, keyin taqvim-ish reja tuzishi kerak. Endi fan o'qituvchilari yagona ish reja bilan ta'minlansa, o'qituvchi bir qoligga solib qo'yilmaydimi? Bu orqali oliy o'quv yurtini bitirib kelayotgan yosh pedagoglar metodikasida ham bo'shliq paydo bo'ladi. Hali ish reja, konspekt, darsning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadini to'liq tushunib yetmagan yosh pedagoglar darsni qanday o'tadi? Bu qaror ayrim qo'l uchida ish ko'radiganlarni quvontirgan bo'lishi mumkin, chunki ular shu ish rejani ham

davlat qilib bersa, deb ishlab kelgan...

Aslida o'qituvchi konspektini nima uchun yozadi? Darsda maqsad hamda samaradorlikka erishish, o'quvchilarga manbaning asosiy joylari va qo'shimcha materiallarni yetkazib berish uchun. Konspekt 45 daqiqaga mo'ljallangan dars taqsimoti bo'lib, 45 daqiqada o'quvchiga yetkazib beradigan ma'ruza yoziladi. O'qituvchidan dars taqsimoti olib qo'yilsa, o'quvchiga nima tushuntiradi? Uchinchidan, elektron jurnalga kelsak, hamma hududda internet ishlashi bir xil emas. Chekka qishloqlarda umuman internet ishlamaydi, u yerdagi pedagoglar baholarni qanday kiritadi? O'qituvchi har darsda bolani baholab borishi, uni o'quvchiga e'lon qilishi kerak. Internet ishlamasa, buni qanday qiladi, og'zaki yoki qo'shimcha jurnal tutadimi? Yoki aloqa bor joyga borib baholab kelishi kerakmi? Unaqada o'qituvchining vaqti yetmay qolishi

turgan gap-ku. Demak, o'qituvchilarda shu hujjatlar bo'lmasa, e'tibor faqat bilim berishga qaratiladimi? Yo'q, albatta, bu ayrim pedagoglar uchun ayni muddao bo'ladi, xolos.

Yana bir gap, maktablarda faqat o'quvchilarning kelajagi uchun jon kuydirib ishlaydigan pedagoglar soni ko'paysa, ta'limda o'sish bo'ladi. Hozirgi kunda maktab rahbarlarida yoshi katta o'qituvchilarga 20 soat dars berish an'anaga aylandi. Yaqinda nafaqaga chiqadigan pedagogning oxirgi 5 yillik ish staji inobatga olinarkan. O'sha ustoz rostdan ham talabga javob bersa, undan ham ko'proq soat ishlasin, lekin, afsuski, ularning ko'pchiligi yung loyiq emas. Faqat cho'ntakni o'ylab, bilimni bir chetga surib qo'yaversak, bolalarimiz taqdirini kim o'ylaydi?

Elyorjon MAHKAMOV,  
Rishton tumanidagi 21-maktabning  
tarix fani o'qituvchisi

Mushtariy muhokamasi

# Boshlang'ichda soxta baho qo'yiladimi yoki yuqori sinflarda ta'lim sustmi?

(Davomi. Boshi 1-betda.)

**Tamara RASHIDOVA,**  
Tayloq tumanidagi  
8-maktab o'qituvchisi:

— Ba'zi boshlang'ich sinf o'qituvchilari-da o'quvchilarni haddan ortiq erkalatib, bahosini o'ta oshirib qo'yish xaloti kuzatiladi. Aslida o'quvchilarni boshidan xatolarni tushunishga va haqiqiy bilimiga yarasha baho olishga ko'niktirib borish kerak. 5-sinf-gacha o'qituvchi va o'quvchi ham, ota-ona ham "a'lo" baholar-dan xursand bo'lishi aniq. Ammo yuqori sinf-ga o'tganda-chi? Yo o'sha "a'lochi" o'quvchi "sinib" qoladi yoki o'qituvchidan "adolat" ni talab qilib hujumga o'tadi. Faoliyatim davomida xuddi shunday o'quvchilar bilan ishladim. Bu sinf o'quvchilari o'zlaridagi xatoli umuman tan olishmaydi, arzimagan ishni bajargani uchun ham "besh" baho qo'yishni talab qilishadi. Bu ularga boshlang'ich sinfda singdirilgan. Past baho qo'ysangiz, butun sinf to'polon ko'tarishni boshlaydi va daftar, kitobni yig'ishtirib qo'yadi. Shuning uchun ba'zi o'qituvchilar tinchini o'ylab, bahosini oshirib qo'ya qoladi. Ammo haqoniy, adolatli o'qituvchilar bunga ko'nikolmaydi.



lablariga ko'nika boradi. Yangi sinf rahbarligi oladigan yuqori sinf o'qituvchilari ham hech bo'lmaganda qaysi sinfga rahbarlik qilishini aniqlab olib, ular 4-sinfgidagi dars tahlillariga tez-tez kirib tursa, o'quvchilari bilan tanishib borsa, o'quvchilar yangi ustoziga tez moslashadi.

mos bo'lsa, bu barcha o'qituvchilar uchun foydali, o'quvchining o'zi uchun ham.

**Dilrabo NORQULOVA,**  
Qarshi shahridagi  
41-IDUM o'qituvchisi:

— Bunday sinflar ko'p uchraydi. Hatto ayrim boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtaga tushib yana erka o'quvchining baholarini sun'iy ravishda oshirib qo'yishga erishadi. Agar boshlang'ich sinfda o'qituvchilar o'quvchilarni haqoniy bahoga o'rgata olsa, juda kerakli ko'nikmani hosil qilishga erishgan bo'ladi.

**Ravshan MATMUSAYEV,**  
"TRUST Education" nodavlat  
ta'lim muassasasi rahbari:

— Aslida boshlang'ich sinflardan baholash tizimini olib tashlash kerak. Bolani bahoga emas, o'zlashtirishga o'rgatgan ma'qul. Ammo bir sinfda 30–40 bola o'qiydigan sharoitda o'qituvchi hamma bolaning o'zlashtirishini eslab qololmasligi mumkin va shuning uchun baholash qulay ko'rinadi. Lekin hamma narsaning yo'lini topsa bo'ladi, masalan, baholash tizimi o'rni-ga o'quvchilarga ko'rsatilmaydigan alohida qayd daftar yoki elektron baza yaratilsa yaxshi bo'ladi. Unda boladagi o'zgarishlar, kamchilik va yutuqlar, zaifliklar haqida ma'lumotlar kiritib boriladi. Mazkur ma'lumotlar bazasi o'quvchi ustida ishlashga, bolaning vakili bilan maslahatlashib hamkorlikda muammolarni bartaraf etishda qo'l keladi. Keyinchalik bu daftar yuqori sinf o'qituvchisining bolalar bilan yaqindan tanishishi uchun juda ham asqotadigan manba bo'ladi. Baholash, reyting yuqori sinfdan boshlansa ham bo'laveradi.

**Dildor NURMUHAMMEDOVA,**  
Termiz shahridagi  
23-maktab o'qituvchisi:

— Ikki yildan beri atay boshlang'ich sinf darslarini kuzataman. 4-sinfdan 5-sinf-ga o'tayotgan bolalarni bog' oralab tog'ga chiquvchilarga o'xshataman. Tog'ga chiqish mashaqqati uchun yuqori sinf o'qituvchilari aybdor emas. Yana bir sabab bor: boshlang'ichda 4 yil kam sonli ustoz bilan birga bo'lishadi. Asosiy darslarni sinf rahbari o'tadi. Fanlararo bo'shliqni bitta ustoz tahlil qiladi va bartaraf etishga qiynalmaydi. Yuqoriga o'tishi hamon o'n to'rtta fandan o'n to'rt xil mutaxassisga duch keladi. Buning yechimi, menimcha, fanlararo uzviylikni ta'minlash.

**Hafiza RASHIDOVA,**  
Termiz shahridagi  
13-maktab o'qituvchisi:

— Bahoni oshirib qo'yish savodsizlikning boshlanishidir. O'quvchini dangasalikka o'rgatuvchi birinchi qadamdir. Qolaversa, boshlang'ichdan endi yuqoriga chiqqan o'quvchilar birdaniga murakkabliklarga duch kelyapti. Sababi 9 + 3 ta'lim tizimini yo'lga qo'yish uchun darsliklardagi mavzular murakkablashtirildi, 11 yilda o'tiladigan mavzular 9 yil ichiga ixchamlashtirildi. Bu yetmaganlar mavzular optimallashtirildi va integratsiyalashtirildi. Mana oqibat.

**Sarvinoz SUNNATOVA,**  
G'ijduvon tumanidagi  
47-maktab o'qituvchisi:

— Deyarli hamma maktablarda boshlang'ich va yuqori sinf o'qituvchilari o'rta-sida ziddiyat bor. 4-sinfini tugatguncha sinfning bilim darajasi yaxshi bo'ladi. Beshinchi sinfga o'tdi, tamom, sifat to'satdan tushib ketadi. Boshlang'ichlar "ishlamaysiz" deb yuqorini ayblaydi. Yuqori sinf o'qituvchilari bahoni oshirib qo'ysay deb boshlang'ichlardan xafa bo'ladi.

**Mahfuza RAJABOVA,**  
Denov tumanidagi  
42-maktab o'qituvchisi:

— Har bir sinfda 3 xil toifadagi — a'lo, yaxshi va qoniqsiz o'zlashtiruvchi o'quvchilar bor. A'lo o'qiydiganlar har qanday sharoitda o'z bahosini olishning uddasidan chiqadi. Savod o'rgatish davrida shuni sezganmanki, bola uyda o'qishni mashq qilmagan, lekin darsda matnni tengdoshlariga nisbatan juda yaxshi o'qib beradi. Uni rag'batlantirishdan boshqa iloj yo'q. Ba'zilarini esa nisbatan "5" baho bilan rag'batlantiramiz. Chunki u ham astoydil harakat qilayotganini sezib turamiz. Qaysidir taraflarini hisobga olib, bolani "sindimlilikka" harakat qilamiz. "4" va "3" baholarda ham shunday. Boshlang'ich sinf rahbarining fanidan doim topshiriqlar tayyorlanadi. I soatlik fan o'qituvchilarining bergan topshiriqlari esa ko'pincha bajarilmay qoladi. Sinf rahbarlari o'z obro'si, sinf reytingi, o'quvchilar o'z farzandidek bo'lib qolgan uchun ham "3" bahoga o'qiydigan o'quvchining "qulog'idan tortib" bo'lsa-da baholarini yaxshilashga, rag'batlantirib, kamchiligini yashirishga intilishadi. Ammo yuqoriga chiqqanda ular bunday kuyunchak yetakchilikni ayirishadi. Ayrim yuqori sinf o'qituvchilari faqat o'ziga yoqadigan 5-6 o'quvchi bilan ishlaydi. Sinfidagi boshqa o'quvchilar bilan ishi yo'q.

**Go'zal PINYOZOVA,**  
Yangiariq tumanidagi  
13-IDUM o'qituvchisi:

— Yuqori sinf o'qituvchisi bolaning nega bahosi pasayib ketayotganining sababini o'rganishi kerak. Balki yangi muhit, yangi ustozlarga ko'nikishi qiyin kechayotgandir. Shuning uchun boshlang'ich sinfda a'lo baholarga o'qib yurgan o'quvchilarga past baho qo'yishga shoshilmaliklari kerak. Boshlang'ich sinfda har bir mavzu qayta-qayta, ipidan ignasigacha tushuntiriladi. Yuqori sinfga o'tishi bilan, ayniqsa, matematika fani ularga qiyinchilik tug'diradi. Fan o'qituvchisi sodda qilib tushuntira olmaydi, yuqori sinflarda qisqa tushuntirishga o'rganib qolishgan. O'quvchilar bunday tushuntirishga hali tayyor bo'lishmaydi. Shu sabab ham uning bahosini pasayib boradi. O'zim yuqori sinf o'qituvchisining matematikadan mavzu tushuntirganini kuzatib bunga amin bo'lganman. Ustozlar, maqsadimiz bolaning haqiqiy bahosini qo'yib, uning bilim olishga bo'lgan qiziqishini so'ndirish emas, har qanday yo'l bilan bolani fanimizga qiziqitirishdir.

**Norxol ABDIDOYIYEVA,**  
Termiz shahridagi 13-maktab  
direktorining o'quv ishlari  
bo'yicha o'rinbosari:

— Boshlang'ich sinf o'qituvchilari bolani rag'batlantirib baholash bilan harakatchanligini oshiradi. Shuning uchun o'quvchilar "4" va "5" bahoga o'rganib qolishadi. Aksariyat otanonalar ham o'qituvchidan "baho" talab qiladi. Bolaning bahosini to'g'ri belgilash va asoslash o'qituvchining mahorati va saviyasiga bog'liq. O'quvchini baho olishga emas, bilim olishga o'rgatish kerak.

Aksariyat otanonalar farzandini 1-sinfga berish oldidan rahbariyat bilan kelishib mahorati, tajribali o'qituvchi sinfga joylashga harakat qiladi. Qarabsizki, bu sinfda maktabga yaxshilab tayyorlangan, otanonalari e'tiborli sara o'quvchilar yig'ilib qoladi. Bunday sinfning ko'rsatkichi tabiiyki a'lo bo'ladi. Otononalar tomonidan doim talab qilinadigan ustozlarni qattiq hurmat qilaman. Ular bu obro'ga o'z mehnati bilan erishganlar. Lekin ko'pchilik nazdida "o'zlashtirish ust o'quvchilar" sinfga aylanib qolganlarning aybi nima? Ularga darsga kirgan ayrim o'qituvchilar ham sidqidildan dars o'tmaydi. Ahvol battarlashib boraveradi. Menimcha sinflarni shakllantirishdagi bunday ayirmachiliklarga chek qo'yish kerak.

**Saidaxon MAMAJONOVA,**  
Chust tumanidagi  
2-maktab o'qituvchisi:

— Boshlang'ich sinf o'qituvchilari 1-sinfga chiqadigan o'quvchilarga odatda bir yil oldin tayyorlov darslarini boshlaydi. Bu jarayonda bola maktab, sinf tartib-qoidasi, o'qituvchi ta-

**Norchuchuk NORMURODOVA,**  
Shahrisabz shahridagi  
16-maktab o'qituvchisi:

— Yuqori sinfga o'tgandan so'ng o'quvchi bilimi qandayligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ko'pchilikning bahosida pasayish kuzatiladi. 5-sinf-ga o'tgan o'quvchilarning tabellarini ko'rib chiqish odatim bor. 2-, 3-sinflarda "4" bahoga o'qigan o'quvchining 4-sinfdagi choraklik va yillik baholari "5" bo'ladi. Balkim o'qituvchi o'quvchisiga "yaxshilik qil-yapman" deb o'ylar. Baholar o'quvchi bilimiga

**Feruza HOSHIMOVA,**  
Qarshi shahridagi  
4-maktab o'qituvchisi:

— Hamkasblarimning deyarli barchasi mavzularni bola ongiga singdirishda turli

usullardan foydalanadi, ko'rgazmali vositalar tayyorlaydi, ayniqsa, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan darsdan so'ng mashg'ulotlar olib borishadi. Lekin yuqori sinf o'qituvchilari ning biror marta bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi bilan qo'shimcha shug'ullanganini, tushunmagan mavzularini qayta, soddallashtirib tushuntirib berganini ko'rmaganman.

**Xosiyat JUMABOYEVA,**  
Amudaryo tumanidagi  
37-maktab o'qituvchisi:

— O'quvchining o'qish tezligi boshlang'ichda shakllanib bo'lishi kerak. Ammo shunday o'quvchilar bo'ladiki, 5-sinfda alifbe va husnixatni qaytadan o'qitganman. Sinfda ko'pi bilan 2 yo 3 nafar ravon o'qiydigan o'quvchi bo'ladi. Mutlaqo xatosiz yozadigan juda kam. O'quvchining o'qish tezligi va savodxonligi past bo'lishiga boshlang'ich sinf o'qituvchisi aybdor. Bola boshlang'ichda kerakli malakaga ega bo'lmadimi, uni yuqoriga o'rgatish juda qiyin kechadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mehnati samarasi va yutug'i ham o'quvchilarning ravon o'qishi, savodxonligi va husnixatida ko'rinadi. Yuqori sinf o'qituvchisida esa bu asosiy maqsad bo'lmaydi. Uning bolaga berishi kerak bo'lgan juda katta dasturi bor. Yuqori sinfga bola qanchalik mustahkam poydevor bilan borsa, keyingi bilimlarni egallashi qiyin kechmaydi.

**Dilfuza SUVONOVA,**  
Yangiyo'l tumanidagi  
42-maktab o'qituvchisi:

— Sinfda o'quvchi soni 35 nafardan ortiq bo'lsa, savodxonlik, og'zaki nutq shakllanishi qiyin. O'qituvchi qay biriga ulguradi. Bir rahbar mahoratli o'qituvchi uchun o'quvchi sonining ahamiyati yo'q, degan fikrni aytgandi. Nega unda Prezident maktablarida bitta sinfga 12 bolani jamlashyapti. Iqtidorlar ko'p. Hech bo'lmasa 25 ta qilishin u holda. Boshlang'ich sinfda o'quvchi soni 20 nafardan oshirmaslik kerak. Ming chiranmaylik, o'zimizcha har xil fikrlar bildirib xaspo'shlamaylik, bu haqiqatni ich-ichimizdan tan olib turaveramiz.

**Sanobar BERDIYEVA,**  
Mirzo Ulug'bek tumanidagi  
286-maktab o'qituvchisi:

— Otononalar 4 yil bolani birga dars qilib, 5-sinf-ga o'tishi bilan "Katta bo'lib qoldi, o'zi eplaydi" deb nazoratni tashlab qo'yishadi. Shu yerdan noto'g'ri o'yilashadi. Yangi sinf-xona, yangi ustozlar, yangi darslar va uslublar bilan shundog'am esankiragan murg'ak bola otanonasining ham 4 yillik e'tiboridan mosuvo bo'ladi. Bu ham bolaning psixologiyasiga salbiy ta'sir qiladi. Menimcha, 4-sinf o'quvchilarning kelasi yilgi sinf rahbarini 4-chorakdan boshlab tayinlab, bir chorak mobaynida boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan hamkorlikda o'quvchilarning bilimi, saviyasi, xarakterik, oilaviy ahvolini o'rganishi kerak. Ona tili va matematika fani o'qituvchilari ham tayinlanib, ular bir chorak davomida dars tahliliga kirishsa, yaxshi samaraga erishish mumkin.

**Muhabbat ORIPOVA,**  
Namangan shahridagi  
62-maktab o'qituvchisi:

— Maktablarda shunday bir norasmiy qoida bor: bilimsiz, tajribasiz o'qituvchilarga 1-sinf berilmaydi. 1-sinf kuchli o'qituvchilarga beriladi. Haligi pedagoglar esa odatda 3-sinfdan rahbarlik qila boshlaydilar. Chunki savod o'rgatish oson emas. Yangi ishga kelganimda aylanib bir 4-sinf darsiga kirib qoldim, o'qituvchi diktanti doskaga yozib beryapti. Ajablandim... Xuddi shu o'qituvchi matematikadan ochiq dars o'tdi. Ustun shaklida 4 xonali sonni doskaga chapdanman, o'ngdan qo'shib keldi, qoldig'ini ham unutdi. Shu dars pedagogik kengashda chunonam maqtdaliki, ajablandim... bilsam, bir "katta"ning odami ekan... Hammaga kulgi bo'lavergach, texnologiya faniga qayta tayyorlovda o'qib keldi. Mehnat darsi ham zo'r: qizlar xonaga qamaladi, o'qituvchi yo'q. Shunaga o'qituvchi boshlang'ichda dars bersa, tasavvur qiling, uni deb qancha o'quvchi savodsizlikka mahkum bo'ladi.

## Xushxabar

## O'n karra talabalik baxti

Avqust — xushxabarlar oyi. Negaki, minglab qalbi orzuga to'lgan qorako'zlarning necha oylar halovatni unutib, kitobdan bosh ko'tarmaganining natijasi shu oyda ma'lum bo'ladi. Qaysidir xonadonda shodiyonalar boshlanib ketadi. Axir bu yoshlar hayotidagi katta bir sahifaning ochilishi. Yurtimizda hali OTMga qabul imtihonlari bo'lib o'tmagan bo'lsa-da, chustlik Nazarovlar oilasidan xushxabar arimayapti. Shifokorlar oilasining 18 yoshli qizi Parizoda Abdulfattoyeva xorijning bir emas, 10 ta nufuzli universitet-u instituti imtihonlaridan muvaffaqiyat bilan o'tdi.

Parizoda joriy yilda Chust tumaniidagi 3-maktabni tamomladi. O'z ustida ishlashni, ilm olishni yoqtiradigan tirishqoq qizni xorijiy tillarni o'rganish, axborot texnologiyalari sohasi qiziqtiradi. U o'z ona tilidan tashqari tojik, rus, ingliz, koreys tillarini ham o'rganagan. Hozir ispan tilini ham o'rganishni boshlagan.

— Bu tillarda bema'lol muloqot qila olish va kitoblarni o'qiy olishim menga yanada keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda, — deydi u. — Maktabda baholarim doim "a'lo" bo'lgan. O'qituvchilarim har doim mening qiziqishlarim bilan alohida shug'ullanib, e'tibor qaratib kelishgan. Ikki yil mobaynida maktab darslaridan tashqari qo'shimcha repetitor kurslariga ham qatnay boshladim. Ingliz tili va matematikani chuqur o'rgandim. IELTSdan 6.5 ball olishga erishdim. Bu natijam xorijiy universitetlar imtihonlarida qatnashishimda juda qo'l kelishini bilganim uchun, astoydil harakat qildim.

Parizoda Toshkent shahridagi Vestminster, Vebster universitetlari, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Britaniyaning Toshkent shahridagi menejment, Toshkent shahrida yangi ochilgan Cambridge International college (British), University of IMICA (International university in Central Asia), University of Team, Sharda (University of Sharda), Latviyaning Axborot tizimlari menejmenti Oliy maktabining filiali va Amerikadagi Point Park universitetlariga imtihon topshirib barchasiga muvaffaqiyatli natija bilan qabul qilindi.

"Imtihonlar sizni qiyinab qo'yadimi?" degan savolimizga u shunday javob berdi:

— Aksincha, IELTSdan olgan natijam va ingliz tilida yozma savodxonligim, og'zaki nutqim yaxshi bo'lgani qo'l keldi. Matematikadan ham yaxshi natijalar ko'rsatadim. Mantiqiy masalalar haqida bosh qotirishni yaxshi ko'rganman va bu bo'yicha ko'p shug'ullanganman. Geometriya masalalari ozgina qiyin kechdi. Xorijiy universitetlar imtihonlarida, eng avvalo, ingliz tilini mukammal bilish talab etiladi. Agar tilni tushunmasa, abituriyent matematikadan tushadigan savollarni ham tushunmaydi. Savollar esa asosan mantiqiy bo'ladi. O'ylaymanki, o'zimizdagi oliy ta'limga kirish imtihonlaridagi testlar bundan ko'ra murakkab. Sababi bizda, haqiqatan ham, OTMga kirish qiyin. Ming mashaqqat bilan talaba

bo'lganlar keyin ilm olishga uncha e'tibor qaratishmaydi. "Amallab sessiyani yopib olsam bo'ldi" qabilida ish tutishadi. Xalqaro OTMlarda esa, aksincha, o'qishga kirish unchalik qiyinmas, ammo o'qib ketish mashaqqat. O'quv jarayonining o'zi salohiyatli kadrlarni saralab oladi. Aslida mana shunday bo'lishi kerak. Shunda mamlakat rivoji uchun malakali, bilimli kadrlar yetishib chiqadi, hamma bilim olishga intiladi, o'qishni uddalolmagan, salohiyatsizlar esa o'z-o'zidan "elakdan o'tolmaydi".

Darvoqe, Parizoda 10 ta oliy o'quv yurtiga qabul qilindi, endi bu o'quv maskanlarining qaysi birida o'qish uning tanloviga bog'liq.

— Aslida oilamizda hamma shifokor bo'lgani uchun mening biznes va axborot texnologiyalari sohasiga qiziqishim ota-onam tomonidan iliq qabul qilinmagandi, — deydi Parizoda. — Lekin o'z orzu va maqsadlarim, qiziqishlarim uchun kurashishim kerakligini his qilardim. Oilamizda bittagina qarindoshim shifokor bo'lmadi, u xorijiy universitetlarda o'qiydi. Uning ingliz tilida gapirishini eshitib, havas qilardim. Shu bo'ldi-yu til o'rganishga qiziq boshladim, meni tibbiyotdan ko'ra aniq fanlar qiziqtirayotganini tushuna boshladim. Ota-onamning xohishlari bilan O'zbekiston universitetlariga ham hujjat topshirib qo'yganman, imtihonlarni kutyapmiz. Ularni ko'proq bu yerdagi imtihonlardan oladigan natijam qiziqtirayapti. Lekin men tanlovimni aniqlab oldim. Vestminster universitetida o'qiyman. Bu mening kelajakdagi maqsadlarimga eng mos tushadigan tanlov deb o'ylayman. Yurtimizda axborot texnologiyalari bo'yicha malakali dasturchilarga ehtiyoj katta. Ayniqsa, qizlar orasida bu kasb egalari deyarli hali ko'zga ko'rinmayapti. O'zbek qizlari orasida birinchi malakali dasturchilar qatorida bo'lishni maqsad qilganman. Ota-onam xohlagandek shifokor bo'lmasam ham, kelajakda o'zim tanlagan kasb orqali tibbiyotdagi eng muammoli masalalarni yechishga hissa qo'shishim mumkindir ehtimol.

Biz odatda muvaffaqiyatlarga erishib kelayotgan yoshlar haqida qiziqar ekanmiz bu yutuqlarning sirini ochishga e'tibor qaratamiz. Zero, har bir oilaning o'z ta'lim-tarbiya metodikasi bor. Nazarovlar oilasida ham o'ziga xos shunday metodikalar bordirki, unda voyaga yetgan farzand bugun katta yu-



tuqlarga erishib kelmoqda. Parizodaning onasi Nozila Abdullalilova bu borada shunday deydi:

— Oilada bilim olishga katta e'tibor qaratamiz, bu nafaqat farzandlarga, balki biz kattalarga ham taalluqli. Bolalarga "O'qisang... erishasan!" degan undovlar bilan ko'p murojaat qilamiz. Bu qoidani ularga bolaligidan singdirib keldik. Farzandlarimizning qiziqishiga qarab ularga kerakli sharoitlarni yaratib berishga harakat qilamiz. Parizoda ko'rik-tanlov, olimpiadalarda qatnashishni yaxshi ko'radi. Maktabdan tashqari o'zi mustaqil internet orqali turli xalqaro insho tanlovlari qatnashadi. O'rganayotgan tillarida ko'p insho yozadi va imkoniyatlarini sinovdan o'tkazishni kanda qilmaydi. Lekin hamma narsaga osongina erishyapti deb bo'lmaydi. Ba'zan urinishlari muvaffaqiyatsiz kechgan vaqtlari ham bo'lgan. Shunday paytlarda men "Qizim, xafa bo'lma, sen baribir kuchlisan, qiyinchiliklarsiz yutuqlarga erishib bo'lmaydi" deb yanada kuch bag'ishlayman.

— Biz barcha qarindoshlarimiz bilan oliy ta'lim muassasasiga yaxshi natija bilan kirish "musobaqasini o'ynaymiz", — deydi Parizoda. — Menimcha, bu chiroyli kiyinish, qimmat telefonlar sotib olish kabi "kimo'zarlik"dan yaxshi. Mana, ko'p yillardan beri bu zanjir uzilmay keladi, ya'ni oilamizda har bir abituriyent o'z ustida qattiq ishlaydi va o'qishga kirishi shart. Bu zanjirni uzmaslik uchun tinimsiz harakat qilib kelinadi. Men musobaqada bu yil rekord natijani ko'rsatdim. Buning uchun ota-onam, ustozlarim Omonulloxon Homidov, Mehruza Abdulloribiyeva va menga Amerikaning turib onlayn ustozlik qilayotgan Faith Niguyendan minnatdorman.

Zilola MADATOVA,  
"Ma'rifat" muxbiri

Pandemiya sharoitida an'anaviy ta'limga muqobil tushuncha sifatida "onlayn ta'lim", "masofaviy ta'lim" kabi birikmalar iste'molga faol kirishga ulgurdi. Ta'limning bu shakldagi ko'rinishi, ya'ni insonlarni bir joyga to'plamasdan tashkil etiladigan o'qitish jarayoni davr talabi ekanligi shubhasiz. Shu o'rinda "masofaviy ta'lim" va "onlayn ta'lim" tushunchalarining farqiga e'tibor qaratsak. Garchi ikkala ta'lim strategiyasi ham o'rganuvchining kompyuter yoki boshqa qurilmalar orqali ta'lim olishini anglatasa ham, onlayn o'rganish vositalari kerak ekanligi — ularning yagona bixillik jihatidir.

## Masofaviy ta'limmi, onlayn ta'lim?

Masofaviy va onlayn ta'lim — bu o'quvchi/ta'lim oluvchining dars xonasida bo'lmagan holatdagi ta'lim shakllari. Ushbu ta'lim shakllari asosan 3 xil mezonga ko'ra farqlanadi:

1. Makon.
2. Munosabat shakli.
3. O'qitish maqsadi.

Makon — asosiy taqqoslanayotgan ta'lim shakllari uchun asosiy farqli xususiyat. Onlayn ta'limda raqamli dars mashg'ulotlarida ishlash jarayonida talabalar o'qituvchi hamrohligida onlayn holatda bir joyga to'plana oladilar. Masofaviy ta'limda esa o'rganuvchi o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriq va vazifalarni uyda turgan holda bajaradi. Bajirilgan ishlar ham o'qituvchi tomonidan raqamli holatda tekshirib baholanadi.

Munosabat shakli ham o'qitish jarayoni makonga ko'ra turlicha ekanligi bois farq qiladi. Onlayn ta'lim ta'lim beruvchi va oluvchi bilan shaxsan — yuzma-yuz muloqot orqali munosabatga kirishadilar. Onlayn ta'lim shu jihati bilan aralash ta'lim texnikasi turlaridan biri hisoblanadi. Ya'ni uni an'anaviy ta'lim jarayoni mobaynida ham qo'llash mumkin.

Masofaviy ta'lim esa yuzma-yuz muloqot orqali amalga oshmaydi. Batafsilroq aytganda, yuzma-yuz holatda o'qitish olib borilmaydi, ba'zi hollardagina ta'lim jarayoni obyekt va subyekti o'rtasida video-qo'ng'iroq yoki aloqa almashinuv dasturlarida muloqot amalga oshishi mumkin xolos.

Onlayn va masofaviy ta'lim o'rtasidagi so'nggi farq o'qitish strategiyasining maqsadida. Onlayn o'qitish boshqa individual shakldagi o'qitish usullari bilan birgalikda foydalanishga mo'ljallangan. Masofaviy ta'lim o'rganish jarayoni uchun ko'rsatma/yo'riqnomani taqdim qiladi xolos, ya'ni u o'qitish usulbi emas.

Demak, respublikamizda mavjud oliy ta'lim muassasalari tomonidan pandemiya davrida yo'lga qo'yilgan ta'lim jarayoni ikkala shakldan foydalangan holda amalga oshirilgan. Ko'p sonli OO'Ylarda Moodle platformasi orqali tashkil etilgan o'qitish shakli masofaviy ta'limning ko'rinishidir. Toshkent davlat yuridik universitetining Ixtisoslashtirilgan filialida joriy etilgan ta'lim esa onlayn ta'lim shaklining yorqin misoli. Chunki mashg'ulotlar (ma'ruza, amaliy, seminar) kunlik dars jadvali asosida ZOOM platformasi orqali olib borildi. Bir vaqtning o'zida fanlar bo'yicha tashkil etilgan telegram guruhlarida materiallar ta'lim oluvchilar tomonidan o'qituvchi bilan bevosita muloqot orqali mustahkamlab borildi.

E'zoza SOBIROVA,  
Toshkent davlat yuridik universitetining  
Ixtisoslashtirilgan filiali o'qituvchisi

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, ayrim bolalarga 5-6 soat davomida partada o'tirgan, doskaga qaragan holda fanlarni o'rganish qiyinlik qiladi o'zlashtirishi pasayadi.

# To'liq masofadan o'qitishga o'tadigan vaqt keldi

Karantin payti ta'lim muassasalarida mashg'ulotlar to'xtatilib, onlayn darslar tashkil etildi. Ta'limda bu usulni qo'llash asosida ma'lum tajriba ham to'plandi. Kuzatishlar va so'rov natijalariga ko'ra, onlayn usulda o'qishni boshlang'ich sinf o'quvchilari (ota-onalarning sa'y-harakati natijasida) birmuncha oson o'zlashtirdi. O'qituvchilar fidoyilik bilan o'z vazifalarini bajardi. Ammo mashg'ulotlar chog'ida loqaydlik qilganlar ham uchradi.

Masofadan o'qitish jahon tajribasida anchadan buyon mavjud. Oxirgi yillarda dunyoning ko'p mamlakatlarida o'qitishning texnik vositalarini ta'lim sohasida qo'llash bo'yicha yutuqlarga erishildi. Rivojlangan mamlakatlarning nufuzli oliy o'quv yurtlarida an'anaviy o'qitish bilan birga, masofadan o'qitish orqali yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Yaqin kelajakda bizda ham bunday o'quv yurtlarini tashkil qilish ko'zda tutilgan. Respublikamizda ta'lim sohasiga kompyuter texnologiyalarini, masofali o'qitish usulini tatbiq qilishga oid muayyan ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ularni talab darajasida deb bo'lmaydi.

Bu usulning qanday imkoniyat va kamchiliklari bor ekanligini ko'rib chiqaylik:

— masofadan o'qitish o'rganuvchiga bilimlarni istagan joyda va vaqtda internet tarmog'iga kirish orqali egallash imkonini beradi, mustaqil o'rganish ko'nikmasini rivojlantiradi. Ayniqsa, nogiron, uzoq muddat davolanuvchilar, ish bilan band bo'luvchilarga bu usulda o'qish ayni muddadidir;

— masofadan o'qitish individual xarakterga ega bo'lib, o'quvchi o'rganish tezligini o'zi belgilaydi.

Kompyuterdan foydalanib o'qitishda axborotni har qanday audio va vizual, statik va dinamik, matnli va grafikli ko'rinishda uzatish va qabul qilish imkoniyati mavjud. Videodarslar orqali o'quvchilarga sinfda ko'rsatish murakkab bo'lgan (tez va sekin o'tuvchi jarayonlarni, xavfli, qimmatga tushuvchi, ko'z bilan bevosita ko'rib bo'lmaydigan) tajribalarni namoyish qilish, laboratoriya ishlarini bajarish mumkin. Agar ayrim maktablarda tabiiy va aniq fanlarni eksperimental o'qitishga oid moddiy-texnik bazaning to'liq emasligini e'tiborga olsak, bu katta imkoniyatdir. Bu orqali o'quvchilarning bilimlari tez va obyektiv baholasa bo'ladi. Qolaversa, vaqtni tejash va natijaga qarab, o'zlashtirishdagi kamchiliklarni bartaraf qilish imkonini beradi;

— agar hozirgi kunda 8-10 nafar o'quvchi yoki talabaga bir nafar o'qituvchi to'g'ri kelishini, o'quv yurtlariga qatnash, binolar, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga oid to'lovlarini hisobga olsak, masofadan o'qitishning iqtisodiy jihatdan ham samarali ekanini ma'lum bo'ladi;

— masofadan o'qiyotgan shaxsning o'rni platformaga boshqa odam kirsam, tizimni bloklay qo'yish mumkinligini ham eslatib o'tamiz. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, ayrim bolalarga 5-6 soat davomida partada o'tirgan, doskaga qaragan holda

abi ekanligini hisobga olsak, muammo yana jiddiy tus oladi. Shuning uchun darsliklarning elektron shaklini yaratish va tajriba asosida asta-sekin uni o'qitishga tatbiq qilish ham muhimdir.

Profil fanlarni belgilashda maktablar qanday hududlarda (ishlab chiqarishi yo'nalishiga qarab) joylashganligi hisobga olingani ma'qul. Professional bilim va uquvlar shakllanishiga imkon beruvchi materiallarning elektron nusxalari bo'lishi lozim. Bugun ishsizlar soni birmuncha ko'paygani, kollejlarda faoliyati tugatilganini e'tiborga olib, bitiruvchilar mehnat bozorida raqobat qila olishlari uchun maktab yordam ko'rsatishi kerak. Ushbu maqsadda malakali ishchilarga talab katta bo'lgan ishlab chiqarish, qurilish, xizmat ko'rsatish korxonalarini, fermer xo'jaliklari va shu kabilar bilan birgalikda ularning bazasidan foydalangan holda, maktab qoshida kasbga o'rgatuvchi kurslarni tashkil qilish ijobiy natija beradi. Bunda o'quvchilar ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, kompyuter texnologiyasini qo'llash, aholiga xizmat ko'rsatish kabi amaliy ishlarni bajarishni o'rganadilar. Tabiiyki, ish qidiruvchilarning soni ortishi bilan o'z sohasini puxta egallagan, professional malakaga ega bo'lganlar uchun ishga joylashish imkoniyati ham ortadi.

Politeknik ta'limni amalga oshirishda masofadan o'qitish yuqori samara beradi. Bularni hisobga olgan holda ommaviy axborot vositalarining xabar berishicha, xorijiy mamlakatlardan maishiy texnikani ta'mirlash, sartaoshlik, tikuvchilik, oshpazlik kabi kasblarga o'rgatuvchi 80 ta masofadan o'qitish dasturlari olingan va yurtimizda ularning tatbiq qilinishi mo'ljallanmoqda.

Ta'limni kompyuterlashtirish uchun avvalo, maxsus dastur va dasturiy ilovalar yaratish lozim. Buning uchun esa malakali o'qituvchi, dasturchi, rassom, dizayner, tarjimon va suxandonlarni jalb qilish kerak. Hozir yurtimizda yetarlicha o'quv markazlari tashkil qilingan. Ularning asosiy faoliyati maktablar to'liq bajara olmayotgan ishlarni amalga oshirish, ya'ni abituriyentlarni oliy o'quv yurtiga kirishga tayyorlash bilan bog'liq bo'lmoqda. Raqobat va daromad birmuncha yuqori bo'lganligi uchun bunday markazlarda yuqori malakali pedagoglar to'plangan. Bizningcha, ularni ham yuqorida qayd etilgan masalalarni hal etishga jalb qilish kerak. Bu ishlarni amalga oshirish uchun moddiy ta'minot, rag'batlantirishga oid masalalar yechimiga alohida e'tibor qaratmoq kerak.

Joriy o'quv yilida maktablarda "elektron jurnal" tatbiq etilishi ta'lim sohasiga kompyuter texnikasini tatbiq qilishdagi yutuqlardan biri bo'ldi. Bizningcha, bu masalani kompleks hal etib, maktablarni o'quv, tashkiliy (masalan, kundalik tutish, dars jadvalarini tuzish, o'quv xonalarni belgilash, xo'jalik ishlarini yuritish kabi) vazifalarni amalga oshirishga imkon beruvchi universal dastur bilan ta'minlash kerak.

Bahodir YO'LDOŠEV,  
Shayxnohur tumanidagi  
254-maktab o'qituvchisi

Onlayn dars mavzulari o'quvchilarga tushunarli bo'lishida fan o'qituvchisining o'rni beqiyos. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisi tushuntirish metodi, qo'llaydigan pedtexnologiyalari, hatto yuz ifodasiga ham e'tibor berishi kerak. Shunda onlayn dars davomida o'quvchi doimo o'qituvchi bilan birga ekanini his qiladi.

## Onlayn darslar uchun kichik tavsiyalar

Bolada avvalo mavzuga qiziqishni dars boshlangunga qadar uyg'ota olish lozim. Men har kungi onlayn ish jarayonimni tongda o'quvchilarimning kayfiyatini ko'tarishdan boshladim. Dars jadvalini tashlashdan avval har bir fanning qanchalik qiziqarli ekanini haqida ta'riflar keltirib, bu fanning ajoyib sirlaridan voqif bo'lish uchun, albatta, darsni kuzatib borish kerakligini aytdim. Masalan, matematikadan 1-sinflarda "100 sonidan berilgan sonni ayirish" mavzusi bor. Shu kuni bolalarga raqamlar haqidagi qo'shiqni eshit-tirdim. Qo'shiqda 0 ni avvaliga boshqa raqamlar mensimaydi, uning hech qanaqa qiymatga ega emasligini aytib, kamsitadi. Lekin, 1 soni 0 bilan birlashtirib, 10, 100, 1000 kabi katta qiymatga ega sonlar hosil bo'lgani muhokama qilinadi. Kuch birlik va ahillikda ekanini tushuntirildi. Qo'shiqni tinglash orqali bolalarning kayfiyati ko'tarildi, uning mazmunidan ahillikning, birlikning ahamiyati haqida tarbiyaviy ta'lim oladilar, shu bilan birga 100 haqidagi mavzuga qiziqishlari ortadi. Darsga tayyorgarlik jarayonida o'qituvchi o'tiladigan mavzuga mos dars taqdimoti va turli qiziqarli slaydlar yaratib, o'quvchilarga o'ziga xos ko'rinishda taqdim etishi, onlayn dars mavzusini o'quvchilar puxta o'zlashtirishlarida katta yordam beradi. Oldindan tayyorlangan taqdimotlar onlayn darslar yakunlangach o'quvchilarga taqdim etilsa, yaxshi bo'ladi. O'quvchilar darsdan olgan bilimlarini ushbu taqdimotlar orqali mustahkamlaydi va daftarlariga bemaol kerakli tartibda yoza oladi. Marematika fani qiziqarli va biron murakkab fan ekanini hisobga olib, o'qituvchi ayrim masalalar, ayrim mavzularni kerak bo'lsa, alohida ovozi xabar yoki videodars tarzida tushuntirib bersa, maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, onlayn dars jarayonida o'quvchilarning daftarlarining yuritilishi, yozuv sifati, ularni yozma rag'batlantirish, yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni o'z o'rinda tuzatib borish, daftarni tekshirib baholash masalalari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun murakkab va muhim jarayon. Bunday vaziyatlarda o'qituvchi oqilona ish tutishi, o'quvchining har bir bajargan ishini kuzatishi, kichik yutuqlarini ham rag'batlantirib, darsga qiziqishini yanada oshirishi kerak. O'qish darslari 1-sinf o'quvchilari uchun juda muhim qadam hisoblanadi, ularning har kungi mavzuni o'qib, ovozi xabarida jo'natishlari, o'qituvchi buni qat'iy nazoratga olishi, xatolar ustida erinmay ishlashi kerak, deb o'ylayman. O'quvchilar o'zi qilgan xatolarini bilishi, uni takrorlamasligi uchun yozma ma'lumot telefonga saqlab olinadi. So'ngra "o'zgartirish"ni bosib, "qalamcha"da yoki "tekst"ga kirib, qizil rangda foydalangan holda kerakli raqam yoki harflar orqali xatolarni to'g'rilash mumkin.

Onlayn darslarni o'quvchilar muntazam kuzatib, o'zlashtirib borishlari bevosita ota-onalarga bog'liq. Faol va jonkuyar ota-onalar uchun turli tashakkurnoma, maqtov yorliqlari tayyorlab taqdim etish ularni farzandlari bilan yanada ko'proq ishlash, natijalarga erishishga undaydi. Bu borada faol o'quvchilar va ularning ota-onalari uchun maxsus videoroliklar yaratdim. Videorolikda o'quvchi va ota-onaning onlayn darslardagi ishtiroki, erishgan yutuqlari, ular uchun tashakkurnomalar aks ettiriladi. Bunday sog'lom raqobat esa onlayn darslarga, bilim olishga bo'lgan qiziqish va motivatsiyani yanada oshirishga katta yordam bermokda.

Zilola ISOMIDDINOVA,  
To'raqo'rg'on tumanidagi  
18-maktabning boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi

# Koronavirusga qarshi kurashishda matematik usullar

Koronavirus (COVID-19) pandemiyasidan qutulish, unga qarshi kurashish va yengib o'tish yo'llarini topish uchun ba'zi matematik fikr va farazlarni bayon etish maqsadga muvofiq.

Matematika bir necha qadam oldinni ko'ra olish va muammolarning analitik usulda yechimini topishni o'rgatadi. Ehtiyotkorlik va o'z harakatlarimiz uchun javobgar bo'lishga ham.

Leonardo da Vinchi shunday degan edi: "Agar kishilarning har qanday tadqiqoti matematik asosda isbot qilinmasa, u tadqiqotni hech qachon haqiqat deb bo'lmaydi".

Matematik mulohazalar asosan  $y=f(x)$  funksiyaga nisbatan o'rganiladi. Bu yerda  $y=f(x)$  funksiyani  $Inson=f(COVID-2019)$  funksiya bilan taqqoslab quyidagi mulohazalarni o'rinni deb qaraymiz:

$$COVID-19 \text{ lim } f(COVID-19) = 0$$

$$1) Inson \rightarrow \begin{cases} \text{uyga} \\ \text{tozalikka} \end{cases}$$

$$2) Kasallanish \begin{cases} \text{Uyda qolish} \\ \text{2m masofa} \end{cases}$$

$$f(COVID-19)d(\text{tozalik}) = 0$$

Bu mulohazalar funksiya, funksiya limiti va funksiya integrali qonuniyatlariga mos keladi deb ayta olamiz. Demak, bu koronavirus (COVID-19) pandemiyasiga qarshi kurashishda qo'llayotgan davlatimiz siyosati to'g'ri yo'l ekanini bildiradi.

Biz Abu Ali ibn Sinoni (980–1037) meditsinaning otasi deb bilamiz, lekin u yetuk matematik ham bo'lgan va matematika rivojlanishiga ham ilmiy, ham amaliy hissa qo'shgan. Ibn Sino kasallik tarixini o'rganish, kasalliklarga davo izlab topish, tabiiy giyohlardan malhamlar tayyorlashda matematikaning analitik usullaridan foydalangan. Ibn Sino matematikaga nisbat haqidagi

$$\frac{A}{B} = \frac{CA}{DB} = \frac{C}{D} \iff \frac{B}{A} = \frac{DB}{CA} = \frac{D}{C}$$


fikrni kiritgan.

Hozirgi kunda matematikaning bu qoidasi butun dunyo meditsinasida ham qo'llanilmoqda. Biz Ibn Sinoning bu mulohazasiga quyidagicha o'xshatish keltiramiz:

$$\frac{A(\text{koronavirus})}{B(\text{odamlar})} = \frac{C(\text{uyda qolish va pokizalik})}{D(\text{tartibsizlik})} \iff \frac{B(\text{odamlar})}{A(\text{koronavirus})} = \frac{D(\text{tartibsizlik})}{C(\text{uyda qolish va pokizalik})}$$

Koronavirusga qarshi kurashishda quyidagi "Xlorlangan suv" haqidagi masalani ko'rib chiqaylik.

Differensial tenglamalarga keltiriladigan aralashmalar haqidagi masalalarda odatda aralashish intensivligi o'ta yuqori, ya'ni ixtiyoriy vaqtda aralashma bir jinsli, boshqacha aytganda aralashmaga qo'shilayotgan moddalar bir tekis aralashib bo'lgan deb qaraladi. Agar komponent (xlor) miqdori R o'zgarmas biror vaqt oralig'ida ma'lum bo'lsa, umumiy aralashma hajmining o'zgarish tezligi  $v(t)$  ni bilgan holda aralashma tarkibidagi komponent(xlor)ning konsentratsiyasi  $At$  vaqt davomida  $\Delta V = p \cdot v \cdot \Delta t$  ga o'zgarганиni bilish mumkin. Lekin qoidaga ko'ra konsentratsiya miqdori vaqtda bog'liq, komponent hajmining o'zgarishi  $p(t)$



$v \cdot \Delta t$  va  $p(t+\Delta t) \cdot \Delta t$  sonlar oralig'ida yotadi:

$$p(t) \cdot \Delta t > \Delta V > p(t+\Delta t) \cdot \Delta t$$

Agar bu tengsizlikni  $\Delta t$  ga bo'lib  $\Delta t \rightarrow 0$  limitga o'tsak quyidagi differensial tenglamani hosil qilamiz:  $V' = pv$ .

Sanitariya normalariga ko'ra ochiq joyda 3 foizdan 1 foizgacha, yopiq joyda 0,5 foiz xlorli aralashma ishlatilishi kerak.

**Masala.** Bak(idish)da 150 litr 4 foizli xlorli suv aralashma bor. Bakka uzluksiz ravishda daqiqasiga 4 litrdan ( $4 \text{ l/min}$  tezlikda) toza suv qo'shilyapti va  $6 \text{ l/min}$  tezlikda bakdagi aralashma chiqib ketyapti, ya'ni sochilyapti. Bir soatdan keyin bakda qancha aralashma qoladi va undagi xlor miqdori konsentratsiyasi qancha bo'ladi?

**Yechimi.** Faraz qilaylik  $V(t)$  -  $t$  vaqtda bakdagi xlorning litrda o'lchangan hajmi ( $t$  vaqt daqiqalarda o'lchanadi). Har daqiqada bakka kirayotganidan 2 litr ko'p suyuqlik chiqib ketyapti, demak,  $t$  vaqtdan keyin bakda  $(150-2t)$  miqdorda aralashma qoladi va undagi xlor miqdori  $V(t)/(150-2t)$  bo'ladi.

Uncha katta bo'lmagan  $\Delta t$  vaqt davomida bakdan  $6\Delta t$  litr aralashma chiqib ketmoqda, agar bu  $\Delta t$  vaqt davomida aralashmadagi xlor miqdori o'zgarmas deb qarasa, u holda  $6\Delta t$  hajmdagi aralashmada  $V(t) \cdot 6 \cdot \Delta t / (150-2t)$  miqdorda xlor bo'ladi. Aslida esa konsentratsiya(xlor) miqdori kamayib boradi, shuning uchun quyidagi tengsizlik o'rinni bo'ladi:

$$-\Delta V = V(t) - V(t+\Delta t) < V(t) \cdot 6 \cdot \Delta t / (150-2t)$$

Xuddi shunday ikkinchi tomondan quyidagi tengsizlikni hosil qilamiz:

$$-\Delta V = V(t) - V(t+\Delta t) > V(t+\Delta t) \cdot 6 \cdot \Delta t / (150-2t)$$

Har ikki tengsizlikni  $\Delta t$  ga bo'lib,  $\Delta t$  nolga intilgandagi limitga o'tsak, aralashma tarkibidagi xlor miqdorining kamayish tezligi uchun quyidagi differensial tenglamaga kelamiz:  $V' = 6 \cdot V / (150-2t)$ . Bu esa sanitariya normalariga mos kelmaydi.

Agar  $t=45$  daqiqadan keyin bakka toza suv quyishni va undan aralashmani olishni to'xtatsak bakda  $150-2 \cdot 45=60$  litr aralashma qoladi va undagi xlor miqdori  $V(45)=6 \cdot (45/75) \cdot 150$  va  $0,0064=0,64$  foizni tashkil qiladi, sanitariya normalariga ko'ra buni yopiq

joyda ishlatish mumkin.

"Naked-science.ru" nashrining xabar berishicha, olimlar matematik modeldan foydalanish koronavirus bilan kasallanishlar sonining aniq hisob-kitobini yuritish, diagnostika va pandemik vaziyatni real baholash uchun katta imkoniyat yaratadi va u orqali holatni tahlil qilib, tegishli tayyorgarlik ishlarini tashkillashtirish mumkin, degan fikrda.

"Infection Control and Hospital Epidemiology" jurnalida e'lon qilingan maqolada Vashington universiteti professori Stiven Kransning ta'kidlashicha, asl holatda matematik modelni qo'llash orqali pandemik vaziyatning yanada aniq manzarasini olish kerak.

Hisob-kitoblar xolis bo'lishi uchun modellashtirishda imkon qadar ko'proq qo'shimcha omillarni inobatga olish kerak bo'ladi. Bunday omillarga, xususan, aholi zichligi va muayyan hududlardagi aholining yosh toifasiga ko'ra strukturasi kiradi.

**Matematik modellashtirish mutaxassisi Srinavasa Rao "Pandemiyaga amaliy tayyorgarlik qancha kasal qayd qilinganidan qat'i nazar, aholi orasidagi real vaziyatdan kelib chiqishi kerak" deb fikr bildiradi. "Ko'rsatkichlar qanchalik aniq bo'lsa, biz pandemiyaga borasidagi real vaziyat qanday ekanini bilib boramiz, virusli pandemiyaga yana qancha davom etishini baholashimiz mumkin bo'ladi. Real voqelikka imkon qadar yaqin olingan ma'lumotlar esa hukumat vakillari va tibbiyot tizimi aynan qanday senariyaga tayyorgarlik ko'rishi kerakligini tushunishga yordam beradi", deya qo'shimcha qildi Srinavasa Rao.**

Olimlar taklif etayotgan yuqoridagi matematik modellashtirish metodikasi dunyo bo'ylab tibbiyot sohasi mutaxassislari muammoning ko'lamini to'liqroq baholash va epidemiya manzarasini mukammalroq tasavvur qilish imkonini beradi.

Muammolarni matematik yo'l bilan hal qilish insonlarni olamning mavjud go'zalliklari bilan tanishtiradi va matematikada juda ham zarur bo'lgan intizom va mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. Bu juda muhim, chunki matematika yordamida mantiqiy fikrlashga o'rgangan odam uni hayotning xohlagan bir sohasida qo'llay oladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, matematikani mukammal o'rganish jarayoni ikki maqsadni parallel ravishda amalga oshiradi: birinchidan, matematik qonuniyat, dalil, formulalarni, matematik talqini amalga oshiradi; ikkinchidan, qonuniyat, dalil, formulalardan nafaqat matematikada, balki boshqa sohalarda ham foydalanish uslublari ko'rsatiladi, natijada matematikani boshqa ko'plab sohalarga qo'llab, ilmiy izlanishlar olib borishimizga to'g'ri keladi.

**Ilhom ZULFIXAROV,**  
Toshkent davlat agrar universiteti  
Andijon filiali "Axborot texnologiyalari va matematika" kafedrasini  
katta o'qituvchisi

# 5-sinf mavzusini 3-sinfga ko'chirishdan maqsad nima?

3-sinf matematika darsligida o'tgan 2018-2019-o'quv yiliga qadar ko'paytirish va bo'lish, uch xonali sonlarni raqamlash, 1000 ichida qo'shish va ayirish, 1000 ichida ko'paytirish va bo'lish, oddiy va murakkab tenglamalarni bajarish usullarini o'rganishga oid mavzular berib kelingan. Bu mavzularni o'rganishdan maqsad o'quvchilarning darslikdan foydalanish holda og'zaki (xotirada) va yozma hisoblash malakasini o'stirishdir.

2019-2020-o'quv yiliga kelib dasturga o'zgarishlar kiritildi. Darslikda berilgan mavzular birmuncha murakkablashdi. Bilmadim, bu holat davr talabimi yoki tajriba uchunmi!?

Kasr son tushunchasi kiritilishidan oldin butun sonni ma'lum teng qismlarga, ulushlarga ajratish va so'ralgan ulush qiymatini aniqlash tushunchasi mavjud edi. Bunday tushunchalarni qamrab olgan misol va masalalar o'quvchilarning kundalik hayoti va o'quv faoliyatida qo'llanilgan. Biroq buning kasr son ko'rinishida ifodalanishi 3-sinf o'quvchilarning kundalik hayotida uchramaydi. Keling, buni misol ko'rinishida ifodalaylik:

$11 + 4 = 15$  ekanligini, 15 buyumni 3 ta bola beshtadan teng 3 ulushga (qismga) bo'lib olishini o'quvchilar mustaqil bajaradilar. Bu holatda o'quvchi diqqati bo'linmaydi. Endi buning kasr son ko'rinishiga e'tibor qarating:

$$\frac{11+4}{3} = \frac{15}{3} = 5$$

Bu holatda noto'g'ri kasr son hosil bo'lishi, kasr suratini maxrajiga bo'lib  $15:3=5$  ekanligini isbotlaymiz. Har ikkala holatda ham natija bir xil.

Oddiy kasrlar-ku, mayli-ya, bunday kasrlar noto'g'ri kasr, aralash son, o'qli kasrlarga aylanib ketsa, o'zlashtirish darajasi qay darajada pasayib ketishini tasavvur qilavering. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlab o'tish lozim, ikkinchi holatda biz o'quvchilarimizning bilim olishga ajratilgan bebaho vaqtini o'g'irlamayapmizmi?

Bu holatni o'z tajribamda sinovdan o'tkazdim. Avval oraliq nazoratni to'rt arifmetik amalda ulushlarni topish, taqqoslash va o'lchov birliklari ustida amallar olib borib, o'zlashtirish darajasining ko'zlangan me'yorlariga erishdim. So'ng bu amallarni bajarishda kasr sonlardan foydalandim va natija past bo'ldi. Bu holatni bir necha bor takrorlab shunga amin bo'ldimki, o'quvchilarning 70 foizida o'zlashtirish darajasi past. Natijada aynan shu nuqtada o'quvchilar bilimida bo'shliqlar paydo bo'ldi. Chunki hozir 3-sinfda o'rganilayotgan kasr son tushunchasi ilgari 5-sinf dasturida edi. 3-sinf o'quvchilari 5-sinf dasturini qabul qiladigan darajada diqqat-e'tiborga ega emas.

Ayniqsa,  $\frac{75}{100}$  kasr soni 0,75 ga teng

ekanligi yoki  $\frac{498}{100}$  noto'g'ri kasrni o'qli

kasr ko'rinishida yozish uchun uni avval aralash songa, so'ng o'qli kasrga aylantirish kerakligi o'quvchi fikrini chalg'itib yuboradi.

$\frac{498}{100} = 4\frac{98}{100} = 4,98$  ko'rinishga kel-

tirish uchun  $498 : 100 = 4$  (98 qoldiq) qolishi, 4 soni butun son, 98 qoldiq esa kasrning suratiga, maxrajiga 100 soni yozilishini tushuntirish kerak va hosil

bo'lgan  $\frac{498}{100}$  aralash sonni o'qli kasr-

ga aylantirish uchun 4 butun son, kasr chizig'i o'rnida vergul yozilishi, maxrajida 100 soni yo'qolib, og'zaki talaffuz etilishi, qoldiqda qolgan 98 soni verguldan so'ng yozilishi va bu son 4,98 (to'rt butun yuzdan to'qson sakkiz) deb o'qilishini tushuntirish kerak bo'ladi. Biz-ku bu amallarni bajarish usullarini o'quvchilarga tushuntiramiz, ammo bolalar bu ma'lumotni dars yakuniga qadar misollarda o'qituvchi yordamida bajaradilar, biroq keyingi matematika darsiga qadar 70 foiz o'quvchi bu ma'lumotlarni unutib yuboradi. Shunday holatlarni hisobga olgan holda boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan har bir mavzu o'quvchi yoshiga, bilimlarni qabul qilish darajasiga mos kelishi shart, deb o'ylayman.

Misol uchun, boshlang'ich sinflarda

o'quvchilarning bebaho vaqtdan unumli foydalanish maqsadida mental arifmetikaning ilk bosqichlarini o'rgatish yordamida to'rt arifmetik amallarni, ayniqsa, ko'paytirish va bo'lishni xotirada bajarish mashg'ulotlarini ko'proq yo'lga qo'ysak maqsadga muvofiq emasmi?! Chunki bunday mashg'ulotlar o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishi, topirligi va xotirada tez hisoblash hamda hozirjavoblik bilan o'z fikrini mustaqil ifodalashga o'rgatishda muhim ahamiyatga ega.

1. Isbot: ikki xonali sonni bir xonali songa ko'paytirishni xotirada bajarishga o'rgatish.

$$\begin{array}{r} *36 \\ 7 \\ \hline 252 \end{array}$$

2. Isbot: ikki xonali sonni ikki xonali songa ko'paytirish va ko'paytirishni qo'shish amali bilan yakunlashni xotirada bajarishga o'rgatish, bola xotirasini rivojlantirishga yordam beradi.

Shu o'rinda ko'p xonali sonlarni xotirada qo'shish va ayirish amallari yuzasidan o'quvchilarga qo'shimcha topshiriqlar berib borish ham foydali. Bunday amallarni dars jarayonida qo'llash, darsni yanada qiziqarli va samarali bo'lishiga yordam beradi.

Dilbar JO'RAYEVA,  
Kasbi tumanidagi 9-maktabning  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

## O'qituvchi minbari

# Bolalarni qiynamaylik, azizlar!

— Ustoz, ustoz, manavi chiziqning pastini nima deyilar edi?

— Maxraj deyiladi, o'g'lim.

— Usti-chi, usti nima deyilar edi?

— Usti surat deyiladi. Shu darsni 3 soatdan beri o'tyapmiz, hech o'zlashtira olmayapsan-a, bolam, ko'proq o'qi, o'rganib ketasan.

— Juda qiyin ekan. Ayniqsa anavi p... per... per... ha... perpendikulyarmi-yey, shu so'zning o'zini aytish uchun bir hafta mashg' qildim. O'rganib olguncha miyalarim achib ketdi.

— Mayli, o'g'lim, sekin-sekin o'rganib ketasan.

— E bitta men emas, Madina bilan Muxtorjon ham aytolmay qiynalishgan edi, anovi bilag'onlaringiz ustilaridan rosa kulishdi.

— Ha, mayli, hali to'garakda shug'ullanamiz, yur ketdik, darsga kech qolamiz.

Bu suhbatni sizlarga havola qilishdan maqsadim nima?

26 yildan buyon maktabda boshlang'ich sinflarga dars beraman. Bu yil o'quvchilarni 3-sinfga o'tdi. Shu sin-

fning matematika darsligini ko'rib hayron qoldim. Darslik chiqarayotganlar adashib 5-sinf mavzularini 3-sinfga yozib yuborishibdimi, deb o'ylabman. Keyin surishtirsam, haqiqatan ham bu mavzular 3-sinfga tegishli ekan. Mavzularni ko'ring, "pozitsion nopozitsion (shu so'zlarni o'zbekcha talqin qilinsa bo'lmasmikini?) sonlar. Xo'p, parallelni ayta olsin, perpendikulyar to'g'ri chiziqlar, o'qqa nisbatan simmetrik figuralar, fazoviy figuralar, kasrlarni aytmayisizmi, ular ustida amallar bajarish, ularni taqqoslash... Endi qo'yaverasiz. Bu mavzularni darslikka kiritayotganda mas'ul shaxslar har tarafdama o'ylab ko'rishdimikan? Yoki respublikamizdagi hamma bolalar iqtidorli o'quvchilar maktabida o'qishadi, hammasining o'zlashtirish darajasi bir xil, ko'rsa bo'ldi, o'rganib ketaveradi deyishdimikan?

Biz qishloq maktabi o'qituvchilari shahar maktablaridagi o'quvchilarga ham, o'qituvchilarga ham havasimiz keladi. Nima uchun deysizmi? Chun-

ki ularga bog'chadan chiqqan, harf, sonlarni taniyidigan bolalar kelishadi. Aksariyat dastlabki qo'shish va ayirishni ham o'rganib bo'lgan holda keladi maktabga. Lekin bog'cha ko'rmagan, kunduzi bilan ko'cha changitib, ota-onasi ishdan kelguncha ukasiga qarab, oyisiga qo'shib erta-yu kech dala kezib yurgan chekka qishloq bolalari bularni qayerdan bilsin?

1-sinfga o'quvchilarni qabul qilganimizda hatto chiziqni farqlay olmaydigan, ruchka ushlashni bilmaydigan holdatda bo'lishadi. Bu bolalarni yozishga o'rgatib, sonlar bilan tanishtirib, o'qishni o'rgatguncha 1-sinf qanday tugaganini bilmay qolamiz. 2-sinfda esa 2 xonali sonlar, ular ustida amallar, 3 xonali sonlarni qo'shish va ayirish, ko'paytirish jadvalini yod oldirguncha bolalarning, o'zingiz, hatto ota-onaning ham tinka-madori quriydi.

Ana endi 3-sinfga o'taylik. 3 xonali, 4 xonali, 5 xonali sonlarni qo'shish va ayirish, ko'paytirish va bo'lish, sodda va murakkab tenglamalarni

yechish, yuzani topish, turli xil o'lchov birliklarini o'rganish va ular ustida amallar bajarishni o'rganishning o'zi ham 3-sinf o'quvchisiga yetarli bo'lar edi, menimcha. Mayli, turli xil figuralarni o'rganishsin, ko'risha tushuncha hosil bo'ladi, lekin kasr sonlar bilan 4-5-sinfda tanishsa ham bo'ladi-ku. Hali sonlar bilan bajariladigan amallarni yaxshi o'zlashtira olmagan bolalarga osmondan tushganday kasr sonlar ustida amallar bajar-tirish bu hech ham qoidaga to'g'ri kelmaydi.

Dasturga kiritilgan bu o'zgarish amaliyotda qanday natija berayotganini biz o'qituvchilar aniq aytib berishimiz mumkin. Mavzularni bir maromida yaxshi o'zlashtirib kelayotgan o'quvchilarim kasrga kelganda to'xtab, qotib qolishdi. 4 xonali, 5 xonali sonlar ustida amallarni, tenglamalarni yechishni rosa qiziqib o'rganayotganlarida kasrga o'tib ketishdi. Ana ko'ring tomoshani, bechora bolalarga biram rahmim keldi-yey.

— Ustoz, shuni keyinroq o'tsak bo'lmaydimi? — deb qo'yishadi. Bu mavzuni sinfdagi 25 boladan 10 nafari qoniqarli o'zlashtirsa katta gap, ammo qolgan bolalar-chi? Agar sinfdagi 35 bola bo'lsa-chi, o'qituvchi qaysi bolaning savollariga javob bersin, qaysinisi bilan alohida shug'ullansin?

Yozganlarimni o'qib, ayrimlar qanday tushuntirish bu o'qituvchining mahoratiga bog'liq, deyishi ham ehtimoldan xoli emas. Fikrimcha, bunday murakkabliklarni joriy etish uchun o'quvchilarning yoshi, fiziologiyasi, qolaversa barcha o'qituvchilarning imkoniyat darajasini umumlashtirgan holda hisobga olish lozim. Nazariy jihatdan fikrlarni asoslash boshqa, ammo o'sha nazariyani amaliyotga joriy qilganda kelib chiqadigan natija umuman boshqacha bo'lishi mumkin. Asosiy esa, natija, shunday emasmi?!

Umrinisa ERGASHOVA,  
Pop tumanidagi  
49-maktabning  
boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi

Globallashuv davrida, keskin islohotlar olib borilayotgan ayni paytda ta'lim-tarbiyaning sifati va samarasi masalasiga e'tibor katta ahamiyat kasb etishi aniq. Ta'lim va tarbiya o'zaro uyg'un tushunchalar. Ular aslida ajralmas. Bamioli insonning vena va arterial qon aylanish sistemasiga o'xshaydi. Ta'bir joiz bo'lsa, ularni bir tangleining orqa va oldi yoki et va timoqqa qiyoslash mumkin. Shunday ekan, ana shu uzviy birlik barkamollikning belgisi hamdir. Inson qalbiga yo'l ta'lim va tarbiyadan boshlanar ekan, uning sifati, natijadorligi ham kun tartibiga chiqishi muqarrardir.

Davlatimiz rahbari "Adiblar xiyoboni" da quyidagi fikrni keltirdi: "Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezuq maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak." Darhaqiqat, ta'sirchan kuch bo'lmasa o'quvchi, talabning diqqatini tortish, e'tiborini qozonish mushkul. Tabiiyki, sifat va samara mezonini esa bilim va tushunchalarni o'quvchi ongu shuuriga aniq, to'g'ri, to'la, tezkor va eng muhimi, ta'sirli yetkazish omili bilan bog'liqdir.

Ta'limning sifati, samarasi va natijasi nimga bog'liq degan savolga, odatda, biz pedagogning zamonaviy talablarga javob berishi, axborot texnologiyalarini o'zlashtirishi, o'z fanini chuqur bilishi, keng qamrovli bilimiga ega bo'lishi, bir nechta xorijiy tillarni o'zlashtirgan bo'lishi, o'z ishiga mas'uliyat bilan qarashi deya javob beramiz. To'g'ri, buni inkor etmaymiz. Lekin faqat shulgina sifat va samaraning mezonini bo'la olarmikan? Do'ppini yerga qo'yib bir o'yab ko'rsak, boshqacha manzaraning guvohi bo'lamiz.

Shu o'rinda ta'lim-tarbiyaning ta'sirchanligi masalasi muhim muammo ekanini yoddan chiqazish yaramaydi. Bu masalaning ildizi, ta'bir joiz bo'lsa, kaliti o'z-o'zidan pedagogning kommunikativ kompetensiyasiga borib bog'lanadi. Chuqur bilimga ega bo'lsa-yu o'z bilimini o'quvchi ong-u shuuriga singdirish mexanizmini egal-lamagan bo'lsa, ta'lim tizimida sifat, samara va natija bo'lishi mumkinmi? Boshqacha aytganda, samarali muloqot texnologiyasi va texnikasini o'zlashtirmagan o'qituvchi o'quvchini ham ana shu maqsadga tayyor-lay olmasligi aniq. Chunki ta'lim olgagina ta'lim bera oladi, tarbiyalangan odamgina tarbiyalay olishi ayni haqiqat.

Rahmatli professor Abdinazar Nurmonovning doktorkil dissertatsiyasi xuddi shu mavzuda edi. Ustoz asosan talabalarni samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlarini borasida xulosalar chiqazgan edi. Achechiq bo'lsa ham ochiq aytish kerakki, pedagoglarning aksariyati ana shu talabga muhtoj. Abdinazar Nurmonov oliy ta'lim muassasalarida aniq maqsadga yo'naltirilgan modulli texnologiyalarni ishlab chiqish, moderatorkil va supervayzerlik amaliyotini takomillashtirish, muloqotning verbal va nonverbal vositalarining umuminsoniy va milliy axloqiy-estetik jihatlarni aniqlash, bo'lajak mutaxassislarining kommunikativ va emosional madaniyatini rivojlantirish kabi masalalarni amalga oshirishda auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar imkoniyatlaridan foydalanish, muloqot san'ati bo'yicha mualliflik dasturi misolida oliy ta'lim muassasalarini talabalarini samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayyorlashning lokal modulli texnologiyasi ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etilgani, oliy ta'lim muassasalarini talabalarini auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga eksperimental tayyorlash jarayoni amalga oshirilishi, oliy ta'lim muassasalarida pedagogik-psixologik fanlar va auditoriyadan tashqari

mashg'ulotlar imkoniyatlarini integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etishi borasida ibratli xulosalar chiqargan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarini talabalarini samarali muloqotga tayyorlash davlat ahamiyatiga molik, shaxsiy, sotsial-ijtimoiy va kasbiy-pedagogik muammo sifatida talqin etilib, mamlakatimiz ta'lim va tarbiya konsepsiyasida nazarda tutilgan yosh avlodni ijtimoiy-kommunikativ sohada faol, mustaqil fikrga ega, o'z fikrini erkin va aniq ifoda etishga qodir fuqaro sifatida tarbiyalashga e'tibor qaratganlari ahamiyatlidir.

O'tgan yili 23-avgust kuni Prezident xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqida ma'naviy-ma'rifiy muhit, o'qituvchi kasbining obro'yi, nufuzi pasayib ketgani, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishga yetarli e'tibor berilmagan sohada bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqargani haqida so'z yuritib, o'qituvchilar oliyini oshirish va rag'bat haqida gapirdi va bu amalga oshirildi.

Yangi davr pedagoglarini tarbiyalash deganda o'qituvchilarning zamonaviy bilimlarni egallashi va pedagogik mahorati, kommunikativ kompetensiyasiga, ergashtiruvchilik qobiliyatiga, o'quvchi, talabalarga o'rnak va namuna bo'lishlariga ishora qilganlarini anglab olish qiyin emas.

Pedagog so'zining lug'aviy ma'nosi «bola yetaklovchi» demakdir. Xo'sh, kim yetaklay oladi, kim izidan ergashtira oladi? Pedagogik qobiliyatga, nutqiy mahoratga, muloqot madaniyatiga ega bo'lgan pedagogga buning uddasidan chiqa oladi. Biz shu paytgacha ergashib kelganmiz, endilikda esa ergashtira olishimiz kerak. Axir, ilmfan, san'at va madaniyatning tamal toshini qo'yganlar ham bizning ajdodlarimiz emasmi? Ergashishda ijrochilik, ergashtirishda ijodkorlik tuyg'usi ustunlik qiladi. Ijodkorlik bu yangilikka intilish, innovatsion ixtiro-lar, investitsion faoliyat sari talpinish, boshqacha aytganda, taraqqiyot demakdir. Bu esa tafakkur tantanasidir.

Xo'sh, pedagogning ergashtirishi nima-ning badaliga bo'ladi? Bu fanga, mavzuga qiziqtirish badaliga bo'ladi. Qiziqqir olish qobiliyati esa notiqlik mahoratiga, pedagogning lingvistik, nutqiy kompetensiyasiga bog'liqligi oynadek ravshan.

Demak, aksariyat muammolarning yechimi pedagogik mahorat bilan, talabalarga motivatsiya berish bilan bog'liq. O'quvchi va talabalarining ko'pchiligi darsga qiziqmasligidan, ko'pgina pedagoglar fanni, mavzuni qiziqarli tarzda emas, balki hissiz va tussiz o'tishlaridan nolanlarini ko'p bor eshitganmiz. Shu bois Rim notig'i Mark Tulliy Sitseron «Qalb harorati bilan sug'oril-magan nutq hech nima, notiq esa hech kimdir», degan. Buyuk notiqning fikrini davom ettirib aytish mumkin, ishtaha bilan yeyil-magan taom hazm bo'lmaydigina emas, balki illat ham qo'zg'atadi.

# Ta'limning sifati va samarasi aslida nimaga bog'liq?

Ochig'ini aytish kerakki, o'z fanini chuqur bilgan, bo'yi barobar kitoblar yoz-gan ustozlarni bilim, havas qilamiz. Lekin afsuski, ularning ayrimlari minbar, mikrofon va videokamera orqali auditoriyaga yuz-lansa, qo'rquv va hayajonga tushadi, bil-ganini ham aytolmay, fikri poyintar-soyintar yo'sinda bo'ladi. Na og'zaki, na yozma nutq madaniyatini to'la o'zlashtirgan bo'ladi. Har ikkalasida fikr yetkaza olish mahorati pedagog faoliyatining alifbosi ekanini bila-miz, lekin amal qilavermaymiz.

Qaysi sohada faoliyat yuritmaylik, qaysi fandan dars bermaylik, nutq madaniyati va notiqlik san'atini egallash zarur. Zeroki, bu ta'limning sifati va samarasini belgilovchi muhim omildir. Vaholanki, ta'limning kaliti nutq, tarbiyaning kaliti xulq bilan bo'lganidek, muloqotning ochqichi nutq, muomalaning tutqichi xulq ekanligini ham aslo unut-maslik lozim.

Tasavvur qiling, bozordan asl dehqondan toza yetishtirilgan osh masallig'ini olib ke-lib oshpazga bersangiz, u taom tayyorlash mashqini olmagani bo'lsa, xomxatala qilib oshni tayyorlasa, siz yeva olaridingiz? Albatta, yo'q. Aybdor kim? Siz, dehqon, qozon, o'choq, o'tin yoki masalliq emas, oshpaz aybdor.

Notiqlik san'ati kursi shunchaki dars emas, bu aslida muolajadir. Bolalikkandan ong ostimizga gapirmaslik fazilat, odobning ulu-g'i indamaslik deb uqtirilgan, joylangan. Tu-mov bo'lgan kimsa bitta ukol olsa, ertasiga yo'talga qarshi dori ichsa, indinga sog'ayib, yaxshi bo'lib ketavermaydi. Buning uchun u tuzalguncha tizimli ravishda muolaja olishi kerak, aks holda, tumovning asorati qola-di. Notiqlik san'atining 36 soatlik nazariy va amaliy mashg'uloti to'la o'tilishi kerak. Shundagina natija bo'lishi mumkin.

Aslida, notiqlik bir yillik, o'n yillik emas, balki umrlik mashg'ulotdir. Men hozirgacha o'rgatib turib o'rganaman. Chunki bir karra ta'lim berish, ikki karra ta'lim olish demakdir. Notiqlikning qoyasi ko'rinish turidagi, unga intilim, maqsad va g'oya bor, lekin to hanzu voyaga yetmaganimiz. Bu tinimsiz mashq va izlanishlarni talab etadi.

Qaysi fan, qanday o'quv predmeti bo'lmasin, o'qituvchi oldida muhim bir muammo turadi. Bu o'z fanini o'quvchiga yetkazish aniqrog'i uning ongu shuuriga singdirishdir. Xoh tabiiy, xoh ijtimoiy fan bo'lsin, o'qituvchi o'z sohasining yetuk bilimdoni va mohir ustasi bo'lishi zarur. Fan haqidagi nazariy ma'lumotlarni qiziq-qarli yo'sinda yetkazish jarayonida bir qancha muammolar borligini inkor etib bo'lmaydi. Tasavvur qiling, o'qituvchi o'z fanini, o'quv predmetini to'la o'zlashtirgan bilimli shaxs ham deylik, lekin unda bilimlarni, fikrini o'quvchilarga yetkazish borasida malaka, tajriba, ko'nikma hosil qilinmagan bo'lsa, maqsad to'la amalga oshmaydi. Shuning uchun ham o'qituvchidan bu borada tinim-siz mehnat, mashaqqatli mashq va izlanish, tashabbus va tashkilotchilik talab etiladi. Zamon bilan hamnafas va hamqadam odim-lash o'qituvchidan yuksak mas'uliyatni va majburiyatni talab etadi. Bugungi o'quvchi

o'qituvchidan ko'ra kengroq axborotga ega bo'layotganidan ko'z yumib bo'lmay-di. Bunga bois ko'plab internet tarmoqlari va boshqa texnologiyalar orqali yetib ke-layotgan informatsiyalardir. Hatto, ayrim o'qituvchilar o'z o'quvchilaridan internetga kirib ma'lumot olib berishlarini iltimos qilishlari ham sir emas. Shunday ekan, qabul qilinayotgan ma'lumotlarning asosli yoki asosli emasligini bilish va bildirishi uchun o'qituvchining o'zi ham internet va boshqa informatsion vositalardan xabardor bo'lishi zarur. Uni to'g'ri tushuntirib, to'g'ri tahlil qilib bera olishi zarur. Aks holda, o'quvchi axborot xurujlari orqasida qanday g'arazli maqsadlar yashiringanini idrok etmay, turli uydirma ma'lumotlarni boshqa tengqur-lariga yetkazib, ularning fikrini chal-g'itishi hech gap emas. "G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish" mumkinligi ta'kidlanarkan, demak, o'qituvchining o'zi ma'rifatga, yetuk bilim va dunyoqarashga ega bo'lishi zarur. Uning bilimi, ma'naviyati esa ma'rifat mayog'i, hi-moya yarog'idir. Milliy g'oya himoyachisi bo'lish, mustaqillik mafkurasini mustah-kamlash mas'uliyati shuni taqozo etadi. Ta'lim va tarbiya inson kamolotida qo'sh qanot ekan, uning ta'sirli bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Har bir pedagog ta'kidlangan fikrlardan to'g'ri xulosa chiqara olishi va amalda to'g'ri qo'llay bilishi kerak.

Xo'sh, ta'lim-tarbiyaning ta'sirchanligi faqat zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ko'rgazmalilik aso-sida ish olib borishmi? Bu vosita, xolos. Avvalambor, o'qituvchining o'quvchi bilan munosabatidagi nutqi va xulqi muhim masaladir. Nutq madaniyatining har ikkala shaklini, og'zaki va yozma nutqni to'la va to'g'ri amalda qo'llay olmagani pedagog-ning maqsadi sarobdir. Necha yosh va qan-day kasbda bo'lishdan qat'i nazar, har birimiz kishilar bilan nutqiy munosabatda bo'lamiz—so'zlaymiz, tinglaymiz, fikr-lashamiz. Har kimning o'z didi, saviyasi, dunyoqarashi, sajiyasi, fe'l-atvori, ko'ri-nishi, kiyinishi bo'lganidek, uning ovozi, so'zlashish uslubi, til va nutqiy madaniyatni egallash darajasi ham o'ziga xos. «O'zingga qarab kutarlar, so'zingga qarab kuzatarlar», degan naql bor. Kishining fahm-farosatini va saviyasi ikki og'iz so'zidayoq namoyon bo'ladi. Kishi fikrining aniq, samimiy va ta'sirli yetib borishi so'zlovchining til va uning harakatidagi ifodasi bo'lgan nutq qoi-dalarini qanchalik bilishi va amal qilishiga bog'liq. Shunday ekan, nutqning aniqligi — tafakkurning tinqiliga daxldor bo'lsa, talaffuzning aniqligi — nutqning tinqiliga bog'liqdir. Nutq nutqning mantiqiy qudra-ti, ta'sir kuchi, jozibasi ham, aslida shu bilan. Nutq nutqi, voiz va'zi har bir davr-larda, har bir makonlarda joiz bo'lgani haq. Demak, nutqiy mahoratni egallashga intilish nutq odobi, aniqrog'i, til va nutq vosi-talarini puxta bilishni taqozo etadi. Nazariy ma'lumotlar amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashmas ekan, bunga erishish mush-ku. Og'zaki va yozma nutqning o'zaro

ligini ham e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchi holati-ni, darajasini his etish asnosida yo'l tutishi muhim. Mavzuni o'zlashtirish va qabul qilish o'quvchilarda har xil kechishini yaxshi bilimamiz. Tasavvur qiling, dars jarayonida o'qituvchi e'tiborsizroq o'quvchi yoniga borib qo'l harakati bilan uning boshini si-lab o'tib ketsa, o'quvchiga qanchalik ta'sir etishi va muloqotning samimiy bo'lishini se-zish qiyin emas. O'qituvchining o'quvchini tushunishi va his etishi, fanda identifikatsiya va empatiya terminlari bilan yuritiladi. Bular odamning o'zini o'ziga ko'chirishi orqali o'sha vaziyatda uning o'zi qanday yo'l tu-tishi mumkinligini o'yashi va uni his etishi jarayonlarini anglatadi. Dil — qulf, til — kalit. Duch kelgan eshikka duch kelgan kalit tushavermagani singari har bir o'quvchi-ni o'qish va o'zlashtirish darajasi borligi-ni inkor etib bo'lmaydi. Verbal va nonverbal vositalarni o'qituvchi va o'quvchini, bosh-qacha aytganda, ikki qirg'oqni bog'lovchi, bordi-keldini ta'minlaydigan «ko'pri-k» deb tushunish o'rindir. Ko'pri-k mustahkamligi esa har ikkala tomonning bir-birini yaxshi tushunishi va his etishiga bog'liq. O'quvchi-larga mavzuning bayoni va mazmuni yuz foiz yetib bormasligi aniq. Har qanday holat-da ham o'quvchi mavzuga qanchalik diqqat qilmasin, ma'lumotning yetib borishida jaz'iy yo'qotishlar bo'lishi tabiiy. Yuqorida qayd etilgan kitobda uning o'quvchiga yetib borishidagi holat quyidagicha izohlanadi: "Fikr o'ylanildi, nutqiy shaklga ega bo'ldi (100%), aytildi (80%), eshitildi (70%), tush-unildi (60%), xotirada qoldi (24%)."

Demak, har qanday holatda ham mavzu-ni to'la yetib borishi mushkul ekan. Lekin mavzuni o'quvchi ongu shuurida to'la o'zlashtirishi va xotirada mustahkamlashi uchun turli interaktiv metod va zamonaviy pedexnologiyalardan foydalanish zaru-ratini yoddan chiqazish yaramaydi. Bunda o'quvchi faolligi, qiziquvchanligi, ijodkor-ligiga ko'proq e'tiborni qarashni foydalanish xoli emas. Nutqiy jarayonda o'qituvchi yetaklovchi va o'quvchi yetaklanuvchi. Bu jarayonda yetaklovchi bilim, tajriba, ko'nikma va malakaga, intellektual kuchga ega bo'lmas ekan, murod hosil bo'lmasligi ayon. O'qituvchining uquvi o'quvchining aql-u tuyg'usiga ta'sir etib uning diqqatini tortmasa ta'lim ta'sirchanligi haqida so'z ham bo'lmaydi. O'quvchi e'tibori o'qituv-chining e'tiborida bo'lmas ekan, ta'lim o'z samarasini bermaydi. Diqqat-e'tibor masala-si hamisha muhim. Nimagadir chalg'igan o'quvchining o'zlashtirish darajasi sust va past bo'lishi oynadek ravshan. Shuning uchun ham mashhur italyan adibi Dante Aligyeri "Diqqatdir suhatning asl asosi" deyishi bilan haql. O'quvchi diqqat-e'ti-borini tortmasdan aytilgan so'z bamioli ni-shonga olmasdan o'q uzayotgan ovchining holatini eslatadi.

Ta'lim-tarbiyaning ta'sirchanligiga te-gishli talablarni bilish o'quvchilarning fanga bo'lgan mehri va qiziqishini tobora orti-radi. Shunday ekan, o'qituvchi izlanish va intilishdan aslo to'xtamasligi, o'zining nutq

ligini ham e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchi holati-ni, darajasini his etish asnosida yo'l tutishi muhim. Mavzuni o'zlashtirish va qabul qilish o'quvchilarda har xil kechishini yaxshi bilimamiz. Tasavvur qiling, dars jarayonida o'qituvchi e'tiborsizroq o'quvchi yoniga borib qo'l harakati bilan uning boshini si-lab o'tib ketsa, o'quvchiga qanchalik ta'sir etishi va muloqotning samimiy bo'lishini se-zish qiyin emas. O'qituvchining o'quvchini tushunishi va his etishi, fanda identifikatsiya va empatiya terminlari bilan yuritiladi. Bular odamning o'zini o'ziga ko'chirishi orqali o'sha vaziyatda uning o'zi qanday yo'l tu-tishi mumkinligini o'yashi va uni his etishi jarayonlarini anglatadi. Dil — qulf, til — kalit. Duch kelgan eshikka duch kelgan kalit tushavermagani singari har bir o'quvchi-ni o'qish va o'zlashtirish darajasi borligi-ni inkor etib bo'lmaydi. Verbal va nonverbal vositalarni o'qituvchi va o'quvchini, bosh-qacha aytganda, ikki qirg'oqni bog'lovchi, bordi-keldini ta'minlaydigan «ko'pri-k» deb tushunish o'rindir. Ko'pri-k mustahkamligi esa har ikkala tomonning bir-birini yaxshi tushunishi va his etishiga bog'liq. O'quvchi-larga mavzuning bayoni va mazmuni yuz foiz yetib bormasligi aniq. Har qanday holat-da ham o'quvchi mavzuga qanchalik diqqat qilmasin, ma'lumotning yetib borishida jaz'iy yo'qotishlar bo'lishi tabiiy. Yuqorida qayd etilgan kitobda uning o'quvchiga yetib borishidagi holat quyidagicha izohlanadi: "Fikr o'ylanildi, nutqiy shaklga ega bo'ldi (100%), aytildi (80%), eshitildi (70%), tush-unildi (60%), xotirada qoldi (24%)."

Demak, har qanday holatda ham mavzu-ni to'la yetib borishi mushkul ekan. Lekin mavzuni o'quvchi ongu shuurida to'la o'zlashtirishi va xotirada mustahkamlashi uchun turli interaktiv metod va zamonaviy pedexnologiyalardan foydalanish zaru-ratini yoddan chiqazish yaramaydi. Bunda o'quvchi faolligi, qiziquvchanligi, ijodkor-ligiga ko'proq e'tiborni qarashni foydalanish xoli emas. Nutqiy jarayonda o'qituvchi yetaklovchi va o'quvchi yetaklanuvchi. Bu jarayonda yetaklovchi bilim, tajriba, ko'nikma va malakaga, intellektual kuchga ega bo'lmas ekan, murod hosil bo'lmasligi ayon. O'qituvchining uquvi o'quvchining aql-u tuyg'usiga ta'sir etib uning diqqatini tortmasa ta'lim ta'sirchanligi haqida so'z ham bo'lmaydi. O'quvchi e'tibori o'qituv-chining e'tiborida bo'lmas ekan, ta'lim o'z samarasini bermaydi. Diqqat-e'tibor masala-si hamisha muhim. Nimagadir chalg'igan o'quvchining o'zlashtirish darajasi sust va past bo'lishi oynadek ravshan. Shuning uchun ham mashhur italyan adibi Dante Aligyeri "Diqqatdir suhatning asl asosi" deyishi bilan haql. O'quvchi diqqat-e'ti-borini tortmasdan aytilgan so'z bamioli ni-shonga olmasdan o'q uzayotgan ovchining holatini eslatadi.

Ta'lim-tarbiyaning ta'sirchanligiga te-gishli talablarni bilish o'quvchilarning fanga bo'lgan mehri va qiziqishini tobora orti-radi. Shunday ekan, o'qituvchi izlanish va intilishdan aslo to'xtamasligi, o'zining nutq

mahoratini oshirib borishi va o'z ustida ish-lashni kanda qilmasligi kerak.

Hissiz kalom aytish bamioli tuzsiz taom totgandek gap. Bu esa zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni o'rini-li qo'llash va notiqlik san'atini chuqur egal-lash zaruratini taqozo etadi.

Rag'bat va manfaat pedagogni hara-katlantiruvchi kuchdir. Shuni inobatga ol-gan holda, shu yil 16-iyul kuni Toshkent davlat texnika universitetida o'tkazilgan yig'ilishda Bosh vazir o'rinbosari Aziz Ab-duhakimov «Eng yaxshi notiq-pedagog» ko'rik-tanlovini o'tkazish va buning uchun bir milliard so'm ajratish taklifini kiritdi. Bu esa Prezidentimizning ta'lim uchun hech qanday mablag'ni ayamaslik kerakligi ha-qidagi fikrlariga hamohang bo'ldi. Bosh vazir o'rinbosarining ushu taklifi ta'lim si-fatini oshirishga qaratilgan yig'ilishda hozir bo'lgan professor-o'qituvchilarga birdek ma'qul keldi.

Buning uchun oliy ta'lim muassasala-rining o'zida ilk bosqich, ya'ni profes-sor-o'qituvchilar o'rtasida ichki tanlov o'tkazilishini zarur deb hisoblaymiz. Til tak-tikasi — taraqqiyot strategiyasining ta'sirchan va innovatsion mexanizmi ekanini yodda tutish o'rindir.

Shularni inobatga olgan holda, vazir-lik tizimidagi professor-o'qituvchilarning og'zaki va yozma nutq madaniyati, adabiy til me'yori-lariga rioya etishlarini, savod-xonlik darajasini, notiqlik mahoratini, kom-munikativ kompetensiyasini, samarali mu-loqot texnologiyasi va texnikasini amalga oshirishga qaratilgan o'quv kursini tizimli ravishda tashkil etish maqsadga muvofiq.

Ushbu o'quv kursini quyidagi tanlov bos-qi-larini asosida tashkil etilishi o'rindir:

1. Muayyan matn (ilmiy-publisistik yoki badiiy) sinchiklab o'qish va uni xoti-rada saqlash orqali qayta ijodiy hikoyalash mahorati.
2. Ovozli tasmdagi audiomatnning ting-lash va anglash orqali qayta so'zlab berish qobiliyati.
3. Tasvirga qarab so'zlash orqali ijodiy imkoniyatlarini namoyish etish loqati.
4. Videolavhani ko'rish va unga fikriy munosabatni yozma ravishda qog'ozga tushirish iqtidori.
5. Ovoz, nafas, diksiya, ohang, to'xtam(pauza), sur'at(temp), intonatsiyaga rioya etish darajasi (eslatma: bular ovoz yo-zish va tasvirga olish orqali amalga oshiri-ladi).
- Ana shu yo'sindagi ichki tanlovdan so'ng saralangan professor-o'qituvchilar «Notiqlik san'ati akademiyasi» ta'lim muassasasida tahsil ko'rib (36 soatlik o'quv dasturi aso-sida) o'z malakalarini oshirishlari maqsadga muvofiq.
- Ikkinchi bosqich esa 3 yil muddatdan so'ng amalga oshiriladi. Unda ma'lum bir sohaga, ta'lim tizimiga oid qonun va qarorlarni, farmon va farmoyishlarning mazmun-mohiyatini yetkaza olish, shar-hlash, tushuntirish darajasi va ish tajriba-si baholanadi. Ritorika, voizlik, balog'a, ya'ni notiqlik san'atining turlari bo'yicha

ixtisoslashgan nazariy ma'lumot va amaliy mashg'ulotlar o'tiladi:

1. Siyosiy-ijtimoiy notiqlik(davlat va hu-kumat arboblari uchun).
2. Akademik notiqlik (ta'lim muassasa-lari professor-o'qituvchilari uchun).
3. Sud notiqligi (adliya, sud, prokuratura, bojxona xodimlari uchun).
4. Harbiy notiqlik (Milliy gvardiya, Qurolli Kuchlar, Davlat xavfsizlik xizma-ti, Mudofaa hamda Ichki ishlar vazirligi xodimlari uchun).
5. Diniy-ma'rifiy notiqlik (imom-xatib va otinoylar uchun).
6. Ijtimoiy-maishiy notiqlik (turli maro-simlar, ma'rifiy uchrashuvlar, to'y va yubi-ley tantanalarida boshlovchi(o'rtakash)lik qiluvchilar uchun).

Bularning har biriga xos bo'lgan nutq ko'rinishlari quyidagilardir:

1. Siyosiy-ijtimoiy va siyosiy-iqtisodiy mavzudagi ma'ruza(doklad)lar. Qurultoy, konferensiya va hokozolardagi hisobotlar. Siyosiy nutq. Diplomatik nutq. Siyosiy ob-zor.
2. O'quv yurtlari ma'ruzalari. Ilmiy ma'ruza. Kurs ishi va diplom himoyalari. Il-miy obzor. Ilmiy axborot yoki informatsiya. Ilmiy-ommabop nutq.
3. Qoralovchi (prokuror) nutqi. Ja-moatchi-qoralovchi nutqi. Oqlovchi (ad-vokat) nutqi. Jamoatchi-oqlovchi nutqi. O'z-o'zini himoya qilish nutqi (jabrlanuvchi va aybdor nutqi).
4. Xutba. Va'z (mav'iza).
5. Jangovarlik nutqi. Chorlov va da'vat-korona nutq. Harbiy vatanparvarlik nutqi. Miting nutqi. Agitator (targ'ibotchi) nutqi. Tashviqotchi nutqi.
6. Madhiya (yubiley yoki maqto-v nutqlari, to'y tantanalarida). Tabrik nutqi (Tost). Ta'ziya (motam) nutqi.
- Nadomatlar bo'lsinki, ko'pchilik ta'lim muassasalar rahbarlari (shuningdek, ak-sariyat hokimlar ham) nutqning to'g'ri-rii-gi, aniqligi, mantiqiyligi va sofigiga rioya etishdan, ovoz, nafas, diksiya, intonatsiya, urg'u, ritm kabi nutq texnika vositalariga amal qila olishdan uzoq. Tabiiyki, shuning uchun ham ular bu mashaqqatli jarayonga ro'yxushlik beravermaydi.
- Shuning uchun ham Prezidentimizning ayrim rahbarlarda saviya yo'q deya darg'a-zab bo'lishlari baqiz emas. Chunki bu mehnatni, mashaqqatli jarayonni talab eta-di. Prezident iborasi bilan aytganda, «o'zini qiynash»ni, tinimsiz izlanishni, harakatni taqozo qiladi. Dilida olovi bo'lmaganing qo'lida qalovi ham, yalovi ham bo'lmay-di. Tizimdagi yalovbardorlik tashabbuskor, tashkilotchi, yangilikka o'ch, fidoyi liderlar-ga xos bo'ladi.
- Xulosa o'mida shuni e'tirof etish kerak-ki, ta'lim va tarbiya ta'sirchanligining turli yo'llari ustida bosh qotirish o'qituvchilar-ning ijodiy imkoniyatlarini yanada kenga-yishiga, ayni paytda, o'quvchilarda izlanuv-chan va intiluvchanlik fazilatlarining yanada qanot yozishiga imkon tug'diradi. Uzluk-siz ta'limning barcha bosqichlarida ta'lim va tarbiya ta'sirchanligi muhim masala bo'lishi-ni va usiz sifat va samaraga erisholmaslikni yodda tutish zarur. Ta'lim-tarbiyani ta'min-lashning ta'sirchanligiga taalluqli talablar, tegishli tavsiiyanomalar taraqqiyotimizning tarzi, tafakkurimiz tarhi, tinchligimiz tayan-chidir. Til taktikasi taraqqiyot strategiyasi-ni ta'sirchan va innovatsion mexanizmidir.

Rahimboy JUMANIYOZOV, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, TIQXMMI matbuot kotibi

## Tajriba

# O'qituvchining ijtimoiy mas'uliyati

Global informatsion xaos hukmron bo'lgan bir davrda yashamoqdamiz. Bunday sharoitda eng katta mas'uliyat ziyoli qatlam vakillari, xususan, o'qituvchilar zimmasiga tushishi tabiiy. Turkiston tarixida bundan 120—130 yil ilgari maydonga chiqq boshlagan jadidlar ham o'zlarining ilg'or g'oyalarni aynan o'qituvchi pozitsiyasidan turib tarqatishga tutgan. Millatni yo'lga solishda ota-onanikidan-da kam bo'lmagan mas'uliyat o'qituvchilar zimmasida bo'lgan o'sha zamonlarda ham. Noshud, farzandining ta'lim-tarbiyasiga befarq o'ta-onalar o'sha vaqtda ham bo'lgan, hozir ham bisyor. Bunga o'tmishda ham (Behbudiyning "Padarkush" pyesasi, hozirgi kunimizda ham (Xalq ta'limi vaziri Shermatovning oxirgi birifingdagi iqtibosi) misollar bisyor.

Biroq sharaf nuqtayi nazaridan o'tanadan kam bo'lmagan o'qituvchi va murabbiylik kasbining egalari e'tirozlar ham talaygina. Oxirgi 4 oyda ulardan ayrimlarining (bu aslida xamir uchidan patir xolos) saviyasi bilan bog'liq o'ta jiddiy savollar yuzaga qalqib chiqdi. Mayli, masalaning bir tomonini oliy ta'limga bog'lab kamchilikni xaspo'shlarmiz, lekin shu kasbning nonini yeb, ro'zg'or tebratayotgan o'qituvchi vijdoni qarshisida yuzi yorug' bo'lishi uchun o'z ustida ishlashi, kamchiliklarini tuzatishi, o'qishi, o'rganishi kerak emasmi? Qog'ozbozlikni bahona qilardik, majburiy mehnatni bahona qilardik, boshqani bahona qilardik, maoshni bahona qilardik — bir necha yildan buyon bu illatlardan tobora qutulib bormoqdamiz, muammolarimizga yechimlar taklif qilinayotir (men buni dardlarimizga em (bu so'zning ma'nosini bilmaydigan o'qituvchilar izohli lug'atdan ko'rib olishsin, harna yana bir so'z o'rganishadi) deb ta'riflagan bo'lardim), biroq saviyada o'zgarish yo'q, yosh mutaxassislarni

qo'yib turaylik, necha yillardan buyon sohada ishlab kelayotgan hamkasblar orasida ham serial ko'rishdan, ijtimoiy tarmoqdan bo'shamaydigan o'qituvchilar serob ekan (oldindan bilardim, dalilim yo'q edi).

Birodarlar, men o'z o'quvchilarimga "Sizdan keyin keladigan avlod sizdan ko'ra kuchliroq, bilimlroq, saviyalroq bo'ladi, harakatdan, o'qishdan, o'rganishdan bir zum to'xtasangiz, jamiyatdagi o'zingizni ularga boy berasiz va keyin uni qaytarib olish juda qiyin bo'ladi" deb aytaman. Aslida, Prezident maktabining o'quvchilarida shusiz ham stimol, motivatsiya yetarli, ko'cha tilida aytganda, "vagoni bilan topiladi". Biroq ularni haqiqatning ko'ziga tik qarashga o'rgatish barobarida o'zim ham ularga o'rnak bo'lish uchun tirishishim, intilishim kerakligini his qilib turaman. **Yuqoridan topshiriqlar, tashabbuslar — o'z yo'lga. Hatto ayrim topshiriqlar esangni qotirishdan o'zgasiga yaramaydi.**

Keling, siz bilan bir tajribani o'rtoqlashay: yanvar oyida maktabimizda "Zakovat" turnirini tashkillashtirishni reja qilgandik, savollarni tuzib, rahbariyatga tasdiqlash uchun taqdim etdim, keyin turnir Nizomini ishlab chiqish topshirig'i berildi, uniyam qildim. Biroq ayrim sabablarga ko'ra turnirni o'tkazish cho'zilaverdi. Bu orada men Character Education darslarida o'quvchilar bilan mantiqiy savollarga asoslangan o'yinlar tashkil etib yuraverdim, qariyb 2 hafta shunday davom etdi. Ishonsangiz, o'quvchilarning o'zlari mendan hatto tarix darslarida ham shunday o'yinlar tashkil qilishni so'rashdi. Yo'q demadim, bolaga o'zi xohlagan narsasini bera olish yoki har qanday bilimni u xohlagandek shaklda, yo'sinda bera olish muhimdir.

Shu asnoda intellektual o'yinlar bo'yicha Toshkent shahar hokimi kubogi o'tkazilishi haqida e'lon chiqib qoldi.

Tezgina shu kungacha mantiqiy savollarga javob berishda o'zini ko'rsatgan o'quvchilardan terma jamoa tuzdik, tuman bosqichida osongina g'alabani qo'lga kiritdik. Shahar bosqichida esa jamoamiz 5-o'rinni oldi. Nega 1-o'rin emas, albatta, g'olib bo'lishganida yaxshi bo'lardi, biroq o'quvchilarning aksariyati ilgari rusiyzabon maktablarda tahsil olishgani uchun aksariyati milliy savollardan iborat bo'lgan shahar bosqichi o'yinlarida qiyinchilikka duch kelishdi. Shunday bo'lsa-da, PIIMA tasarrufidagi maktablar ichida kuchli 5 likka kirgan yagona jamoa sifatida qayd etildik.

Terma jamoaning natijalari rahbariyatni ruhlantirib yubordi, maktab birinchiligi — "Inter Intel Liga-Spring" turniriga start berildi. Afsuski, pandemiya munosabati bilan karantin e'lon qilinishi tufayli turnir to'xtab qoldi.

Karantinda o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishning yo'llarini axtara boshladim. Chunki bunday qiyin vaziyatda jim turish, "energiyani tejash" rejimiga o'tib olish, passivlik ko'rsatish mumkin emas edi. Shunda bir nechta filantrop hammaslaklarim bilan birgalikda birinchi masofaviy individual intellektual turnirga start berdik — "Distance Intel Liga". Bir yarim oy mobaynida har kuni 10 tadan "Zakovat" darajasidagi savollarni tuzib, ishtirokchilarga taqdim etib bordim. Qariyb 180 kishi ishtirok etgan respublika miqyosidagi ushbu turnir g'olibiga 1 mln so'mlik kitoblar jamlamasini topshirdik.

"Distance Intel Liga" davom etayotgan bir paytda "Inter Intel Liga" jamoaviy turnirini ham yakuniga yetkazib qo'yish muhim edi. Turnirni ko'tarinki ruhda davom ettirdik va shu ruhda yakunladik. Sharoit imkon berishi bilan, g'olib jamoaga maktab rahbariyati hamda homiylarning sovg'alari topshirildi.

Bu yilgi yozgi ta'til o'quvchilar uchun "syurpriz" bo'ldi. Mana, ayni vaqtda ham yoshlar uydan chiqmagan holda bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish haqida bosh qotirishga majburlar. "Intel Liga" klubi bunga o'ziga xos yondashuv bilan munosib hissa qo'shishga qaror qildi — "Summer Intel Liga" jamoaviy turniri tashkil etildi, hozir turnirning 7-turini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilmogda, g'olib jamoa vakillari, albatta, taqdirlanadi.

Qolaversa, ingliz tilida ham o'ziga xos kichik turnir o'tkazishni rejalashtirgan edik. Hozir "English Intel Liga" turnirining endigina 1-o'yini ortda qoldi, ushbu masofaviy individual intellektual turnir g'olibiga ham sovrinlar va'da qilingan.

Yangi o'quv yili boshlanishi bilan "Inter Intel Liga" turnirining kuzgi mavsumi — "Inter Intel League-Autumn" start oladi. Tinmaymiz, to'xtamaymiz. Shu bilan birga o'quvchilarni ham tindirmaymiz, fikrlashdan, bellashuvlardan zavq olishdan to'xtashlariga yo'l qo'ymaymiz.

Nima deb o'ylaysiz, buning uchun mendan nima talab qilinmogda? Haftasiga salkam 5 soat vaqt ("Distance Intel League" turnirida kuniga 5 soatdan sarflanman, biroq karantinda bu mening ish soatlarim hisobidan qoplanardi), shu xolos. Nima yo'qotayman? Hech nima. Chunki o'sha 5 soatni shunchaki bekorchilik bilan o'tkazib yuborishim ham mumkin edi.

Menga o'qituvchilik kasbi rizq qilib berilgan ekan, bu rizqni halolab olishim muhim. Bo'sh vaqtda dasturlash, veb-dizayn, chet tillari kurslarini o'tayotgan, hunar o'rganayotgan hamkasblarimni bilaman. Ularga hurmatim cheksiz. Vijdonan onlayn to'garaklarni yaratayotgan, xo'jako'rsinga ishlashni or deb bildirgan hamkasblarimga boshim yerga tekkuncha ta'zimdaman. Har bir o'qituvchini, har bir pedagog hamkasbimni ana shunday pedagoglardan bo'lishga da'vat etaman. Toki o'qituvchi nomini ulug'lash, jamiyatdagi obro'sini oshirish — vazirlikning yoki hukumatning emas, aynan o'zimizning qo'limizdadir, qadrli hamkasblar!

Iqboljon KAMOLOV,  
Toshkent shahridagi Prezident maktabi  
tarix fani o'qituvchisi

## Taklif

## Yangicha tajribaga ehtiyoj katta

Yaqin ikki uch-yilda ta'lim tizimini rivojlantirishga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Bu vaqt oralig'ida tizimdagi bir qancha muammolar o'z yechimini topmogda. Jumladan, o'quv darsliklari va adabiyotlarni yangilash, ilmiy-uslubiy qo'llanmalar yaratish, o'quv dasturlarini o'quvchi yoshi, saviyasiga mos darajada tayyorlash masalalari doimiy muhokamalarga sabab bo'lib kelmogda.

Yana bir muammo mutaxassislarni tayyorlash, qishloq joylarda fan o'qituvchilari yetishmasligidir. Ko'pgina salohiyatli soha vakillari joylarga borib ishlashni istamaydi. Bu sharoitda umumta'lim muassasasi bilan pedagogik oliy ta'lim muassasalari o'rtasida integratsiyani yo'lga qo'yish lozim. Oliy ta'lim muassasalarini tu-

gatgan bitiruvchilar davlat taklif qilgan joylarga borib ishlashni rad etgan holda o'ziga qulay va yaxshi sharoitlarda ishlashni ko'zlaydi. Bu vaqtda muayyan muddat oralig'ida ishsiz qoladi. Bu o'rinda olis hududlardagi umumta'lim maktablari xususida gap ketmogda, ularda asosiy fanlardan mutaxassislarga ehtiyoj katta.

Masalaning yana bir tomoni shuki, oliy ta'lim muassasalari marketing bo'limi hududiy kesimlarda kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganmaydi. Agar oliy ta'lim va umumta'lim maktablari o'rtasida hamkorlik o'rnatilib, bunga mahalla idoralari ham bosh qo'shsa muammo muayyan darajada yechim topadi. Pedagoglarning kasbiy mahorati oshishiga to'siq bo'luvchi yana bir sabab — malaka oshirishga borgan pedagoglar sifatli o'qitilmasligi, zamonaviy ta'lim borasida yangiliklardan xabardor etilmasligidir. Misol uchun, pedagoglar masofaviy malaka oshirmogda. Tasavvur qiling, bir oylik malaka oshirish kurslari ham bor. Malaka oshirish instituti pedagoglari

sohada malaka oshirayotgan ustozlarga bir oy vaqt mobaynida fan yangiliklarini, fandagi dolzarb mavzular yuzasidan yangicha metodlarni o'rgata olarmikan? Eng qizig'i, malaka oshirish yakunida bir necha sohalardan test topshiriladi. Testlar zamon talablariga mosmi, pedagogning malakasini oshirishiga turtki bo'la oladimi? Test topshirayotgan pedagoglar o'zi bilimi bilan test topshirayaptimi?

Bu borada o'z takliflarimni bidirsam. Birinchidan, darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalar yaratuvchi pedagoglar uchun yagona platforma yaratish lozim. Bunda mavjud kamchiliklarni topish, o'quvchilarga va hatto pedagoglarga

murakkablik qiladigan ayrim savollarga optimal yechim topish, kelgusida darsliklarga ana shu yechimlarni kiritish imkoni tug'iladi.

Ikkinchidan, pedagog kadrlarning avvalgi yondashuv bilan qolib ketgan testlar bilan malaka oshirishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Buning optimal yechimi esa yangi zamonaviy yondashuvlarga asoslangan testlar bazasini shakllantirish zaruratini keltirib chiqarmogda.

Muhimi, yangi zamonaviy fikrlaydigan yetuk mutaxassis pedagoglarning sohada faoliyat olib borishi uchun malaka oshirish tizimini soddalashtirish kerak. Bu ixcham, mazmunli tizimda o'ziga xos yangi tajriba shakllanib boradi. Bunga erishish uchun barchamiz mas'ulmiz.

Sharifjon XOLBO'TAYEV,  
Uchquduq tuman xalq ta'limi bo'limi metodisti

Buxorodagi Mir Arab madrasasi yopilgach, uning talaba va mudarrisilari bir qancha vaqt davomida Urgutdagi Madrasayi G'ishtinda tahsil olishgan.

# Temuriylar asos solgan qadimiy universitet

Dunyo nigohidagi ko'ha shahar – Samarqandning dovruqi, me'moriy obidalari, osori-atiqalari yetti iqlimga ma'lum va mashhurdir. Endi bu javohirlar shodasiga yana bitta topilma qo'shilgani kishi ko'ksini g'urur va iftixorga to'ldiradi. Olimlarning tarixiy ma'lumotlarga tayanib ta'kidlashiga ko'ra, Samarqand davlat universiteti olti asrlik tarixiy yo'lni sharaf bilan bosib o'tgan muhtasham ilm maskani, XV asrda dunyo tamadduniga nodir kashfiyotlari bilan ulkan hissa qo'shgan olim – Mirzo Ulug'bek oliy madrasasining davomchisi ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu yil Samarqand davlat universiteti 600 yoshga to'ladi.

O'rtta Osiyoda qadimgi davrlardan faoliyat yuritgan bilim maskanlari – madrasalar o'z davrining oliy ta'lim muassasasi, ya'ni, universitetlari maqomida bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha, X asr oxiriga kelib Samarqandda 17 ta madrasa faoliyat yuritgan. Bular orasida oliy madrasa maqomiga ega madrasalar ham bo'lgan. Ayniqsa, 1420-yili Mirzo Ulug'bek ta'sis etgan madrasa o'zining ko'lami, salohiyati va oliy maqomi bilan Sharqda juda tez shuhrat topdi. Bu madrasa boshqa oliy madrasalardan dunyoviy, ayniqsa, aniq fanlarning o'qitilishi va shu yo'nalishlarda olib borilgan tadqiqotlar ko'lamining kengligi va olamshumuligi, ilmiy-pedagogik kadrlarning yuksak ilmi va mahorati bilan ajralib turar edi.

Universitetning tarixiy ildizlari o'rganilar ekan, ilmiy tadqiqot bilan birga ilg'or ta'lim usullari ham qo'llanilganiga shubha yo'q. Shu o'rinda yana bir muhim ma'lumotni faxr bilan keltirmoqchiman. G'azal mulking sultoni, o'zbek adabiy tilining asoschisi – Nimoziddin Mir Alisher Navoiy ham to'rt yil davomida Samarqandda ta'lim olgan. U zot 1465-yildan 1469-yilning bahorigacha Samarqandda yashadi, Fazlulloh Abu Lays madrasasida o'qib, turli fanlarga oid bilimlari yanada chuqurlashtirdi. Samarqandning ko'zga ko'ringan shoirlari – Shayxim Suhayliy, Mirzobek, Mavlono Xovariy, Mir Qarshiy, Harimi Qalandar, muammogo'y Uloyi Shoshiy, olim Mavlono Muhammad Olim va boshqalar bilan hamsuhbat bo'ldi va do'stlashdi. Samarqand shahri hokimi Ahmad Hojibek ashi hirotlik bo'lib, Vafoiy taxallusi bilan she'r yozardi, u Alisher Navoiyga alohida hurmat va e'tibor bilan qaradi. Uning yordamida Alisher Navoiy davlat ishlari bilan ham shug'ullana boshladi. Davlat ishlari boshqarishda dastlabki tajribani, muhim malakalarni shu yerda ortirdi va bu unga keyinchalik asqotdi. Alisher Navoiyning Samarqanddagi siyosiy va davlat faoliyati yuqori baholanib, unga «Chig'atoy amiri» unvoni ham berilgan.

Bundan shuni anglash mumkinki, Navoiydek donishmand shoir, davlat arbobi Samarqand madrasayi oliyalarida tahsil olgan, dars bergan, o'zining keyingi faoliyatida asqotadigan ko'plab malakalarga ega bo'lgan. Ulug'bek yaratgan ilmiy muhitda 200 dan ortiq olim faoliyat olib borgan. Ayniqsa, madrasada astronomiya, matematika, geometriya fanlariga bag'ishlangan bir qator qo'llanmalar yaratilgan. Mirzo Ulug'bek madrasasidagi ilm-fan Markaziy Osiyolik mashhur olimlar,



dunyo ilm-fani rivojiga ta'sir ko'rsatgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Ahmad al-Marvaziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniylar boshlab bergan ilmiy an'anaga asoslangan edi.

Universitetning tarixiy yo'li O'zbekistonda ta'lim tizimining taraqqiyot bosqichlarini ham ko'rsatib beradi. Ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyo mintaqasidagi buyuk tamaddunlar bir-birining mantiqiy davomi sifatida o'rtaga chiqqan, bu sivilizatsiyalarning jon tomirlari bo'lgan madrasalar ta'lim tizimi ham davrlar osha rivojlanib va takomillashib kelgan. Shu ma'noda Samarqand davlat universiteti Mirzo Ulug'bek oliy madrasasining bevosita vorisi bo'lib, uning ta'sis etilish tarixi ham 1420-yilga Mirzo Ulug'bek oliy madrasasining ta'sis etilish sanasiga borib taqaladi. Bu esa Samarqand davlat universiteti Mirzo Ulug'bek asos solgan madrasayi oliyaning bevosita davomchisi, deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Zero, Mirzo Ulug'bek madrasasi faoliyati Samarqand davlat universiteti tashkil topgunga qadar uzviy davom etgan, 1868-yil ma'lumotlariga ko'ra, Mirzo Ulug'bek madrasasida 24 ta hujra faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularda 48 nafar talaba yashagan bo'lsa, XX asr boshlariga kelib esa talabalar soni 108 nafarga yetgan.

Tarixchi S. Muhiddinovning ta'kidlashicha, 1913-yilga kelib, Samarqand viloyatidagi madrasalarda 2205 nafar talaba tahsil olgan. Shu o'rinda, O'zbekiston hududidagi so'nggi madrasa Samarqand viloyati Urgut tumanida qurilganligini aytish lozim. Buxorodagi Mir Arab madrasasi yopilgach, uning talaba va mudarrisilari bir qancha vaqt davomida Urgutdagi Madrasayi G'ishtinda tahsil olishgan. An'anaviy ta'lim tizimining yuqori bosqichi Samarqandda 1920-yillarning o'rtalarigacha faoliyat ko'rsatgan. Bu davrda



gii madrasa – ta'lim muassasalari tarixi bilan bog'lash ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning yuksak namunasi bo'lib, yosh avlodni vatanparvarlik hamda ilmiy-madaniy merosimizga faxr-iftixor ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Samarqand davlat universiteti hukmdor, olim Mirzo Ulug'bek nomi bilan bog'liqligi uning bugungi talaba-yoshlariga ham yuksak iftixor bag'ishlaydi, ularga ilm yo'lida katta ishtiyoq va ilhom beradi.

Joriy yilning sentabr oyida Samarqand davlat universitetining 600 yilligini nishonlash O'zbekiston ta'lim tizimining ham qadimiy ekanligi va o'ziga xos ilg'or o'qitish tizimi bo'lganligini tasdiqlaydi. O'z davrida Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Alisher Navoiy kabi teran tafakkur sohiblarini tarbiyalagan ta'lim tizimining asoslarini o'rganib, mamlakat taraqqiyoti uchun bugungi kunda nihoyatda zarur bo'layotgan sharqona ta'lim modelini yaratish mumkin.

Samarqand davlat universitetining Mirzo Ulug'bek oliy madrasalarining davomchisi, izdoshi ekanligiga shak-shubha yo'qligini uning bugungi salohiyati ham isbotlab turibdi. Universitetda hozir ham til, adabiyot, fizika, matematika, astronomiya, tarix kabi ilmiy maktablar faoliyat ko'rsatib, mamlakatimiz iqtisodiyotiga, ilm-fan sohasiga katta hissa qo'shib kelmoqda. Samarqand davlat universitetida shakllangan ilmiy maktablarning erishgan natijalari Ulug'bek davridagi kabi hozir ham dunyoga ma'lum va mashhurdir.

Men ham shu temuriylar asos solgan universitetda tahsil olganimdan, o'n yildan ortiq talabalarga dars berganimdan bugun cheksiz faxrlanaman. Universitetning ko'plab xodimlari xorijiy universitetlarda, respublikamizning eng nufuzli tashkilotlarida faoliyat ko'rsatadi. O'zbekistonda juda kam o'rganilgan, bugun davlat siyosati darajasida e'tibor qilinayotgan ona tili o'qitish metodikasini rivojlantirish bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini mana shu tarixiy universitet qoshida tashkil etilgan Ilmiy kengashda himoya qilganimdan baxtiyorman.

Universitetda egallagan ko'nikma va malakalarim asosida Respublika ta'lim markazida filologiya sohasini rivojlantirish, milliy ta'lim dasturi, Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va zamonaviy darsliklar yaratish va tashkil qilish ishlari ishtirok etdim. Hozir «O'zagrotexsanoatxolding» AJ boshqaruvi raisining davlat tilini rivojlantirish bo'yicha maslahatchisi sifatida sanoat sohasida o'zbek tilini rivojlantirish, davlat tilida ish yuritilishini ta'minlash bo'yicha faoliyat olib bormoqdaman.

Universitetning olti asrlik tarixi va Mirzo Ulug'bek nomi bilan bog'liqligi dunyo hamjamiyatiga ham ma'lum qilinsa, unda o'qishni xohlovchi xorijiy talabalar soni ham ortadi, xalqaro ilmiy aloqalar sezilarli rivojlanadi. Bu esa mamlakatimizga har tomonlama manfaat, shuhrat olib keladi.

**G'ofir HAMROYEV,**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori

O'zbekistonda ta'lim tizimi shakllanishi va rivojlanishini o'sha davrlarda-

## Diqqat, tanlov!

## “Eng ulug‘, eng aziz”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi, “O‘zbekkino” milliy agentligi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, “Tasviriy oyina” ijodiy uyushmasi, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi mamlakatimiz mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan “Eng ulug‘, eng aziz” an’anaviy ko‘rik-tanlovini e‘lon qiladi.

Tanlovga “Sen – qudrat manbaysi, saodat maskani, jonajon O‘zbekistonim!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan va 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi hamda “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” davlat dasturi doirasida mamlakatimizni har tomonlama obod qilish, uning iqtisodiy qudratini kuchaytirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni, O‘zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi nufuzi va obro‘si oshib borayotgani, pandemiya sharoitida ham davlat va jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar izchil davom etayotganini hayotiy misollar va ilmiy asoslangan tahlillar asosida xolis va haqqoniy yorituvchi ijodiy asarlar qabul qilinadi.

“Eng ulug‘, eng aziz” an’anaviy ko‘rik-tanlovi quyidagi nominatsiyalar bo‘yicha o‘tkaziladi:

– yozuvchi va shoirlarning badiiy

asarlari;

– bosma OAV xodimlarining jurnalistik ishlari;

– ommaviy axborot vositasi sifatida ro‘yxatga olingan veb-saytlardagi internet-jurnalistika materiallari;

– televideniye va radio ijodkorlarining materiallari;

– tasviriy san‘at, foto asarlari va dizayn ishlari;

– kino san‘ati asarlari.

Shuningdek, tanlov doirasida Mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilinganining o‘ttiz yilligi munosabati bilan bosma OAV, veb-sayt, telekanal va radiokanallar ijodkorlari uchun har bir yo‘nalish bo‘yicha bittadan “Eng yaxshi jurnalistik material uchun” rag‘batlantiruvchi nominatsiya joriy etilmoqda.

Ko‘rik-tanlovga 2019-yilning 15-avgustidan 2020-yilning 15-avgustigacha bo‘lgan davrda rasman chop etilgan adabiy-badiiy asarlar, gazeta-jurnallar va internet nashrlarida e‘lon qilingan maqolalar, radio va telekanallarda e‘fira uzatilgan materiallar, namoyish etilgan tasviriy san‘at va kino san‘ati asarlari joriy yilning 10-sentabriga qadar qabul qilinadi.

Ko‘rik-tanlov g‘oliblari 2020-yil sentabr oyida taqdirlanadilar va ularning ro‘yxati matbuotda e‘lon qilinadi.

Koronavirus pandemiyasi sababli karantin qoidalaridan kelib chiqib, tanlovga yuboriladigan ijodiy ishlar onlayn shaklda qabul qilinadi.

Ishtirokchilar (muallif va uning professional faoliyati to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot; pasport nusxasi; manzil va bog‘lanish telefonlarini ilova qilgan holda) o‘z ijodiy ishlarini “Eng ulug‘, eng aziz” ko‘rik-tanloviga hamda “Eng



yaxshi jurnalistik material uchun” nominatsiyasiga deb (nominatsiya yo‘nalishini) ko‘rsatgan holda quyidagi shakl va formatlarda [tanlov2020@aimc.uz](mailto:tanlov2020@aimc.uz) elektron pochtasiga yoki [@tanlov2020](https://t.me/tanlov2020) telegram manziliga yuborishlari lozim:

– yozuvchi va shoirlarning badiiy asarlari, bosma OAV xodimlarining jurnalistik ishlari PDF formatda;

– ommaviy axborot vositasi sifatida ro‘yxatga olingan veb-saytlardagi internet-jurnalistika materiallari havolalar (ssilka) ko‘rsatilgan holda;

– tasviriy san‘at, foto asarlari va dizayn ishlari JPG formatda;

– kino san‘ati asarlari AVI formatda google disk, yandex disk yoki boshqa virtual resurslarga yuklanib, havolasi yuboriladi (maszur havola 30 kun davomida ishlab turishi zarur);

– televideniye va radio ijodkorlarining materiallari Mp3 hamda AVI formatda google disk, yandex disk yoki boshqa virtual resurslarga yuklanib, havolasi yuboriladi (mazkur havola 30 kun davomida ishlab turishi zarur).

**Eslatma:** yozuvchi va shoirlarning badiiy asarlari bitta kitobdan, kino san‘ati asarlari bitta to‘liq metrajli kinoasardan, bosma va elektron ommaviy axborot vositalari xodimlarining materiallari, tasviriy san‘at, foto asarlari va dizayn ishlari uchtdan kam bo‘lmasligi lozim.

Qo‘shimcha ma‘lumot olish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining (71) 244-32-33 telefon raqamiga murojaat qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi bilan hamkorlikda

## “Qadring baland bo‘lsin, ona tilim”

shiori ostida Respublika tanlovini e‘lon qiladi.

Tanlovning asosiy maqsadi o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, davlat tilini milliy qadriyat sifatida targ‘ib qilish, unga nisbatan milliy g‘urur hissini tarbiyalash, tilimizning xalqaro mavqeyini mustahkamlash, yana muhimi, davlat tiliga oid muammolarni hal etishga ijodiy yondashuvni rivojlantirishdan iborat.

Tanlovga taqdim etiladigan ijodiy ishlar aholi hamda yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ijtimoiy faolligi va millat taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirish, kitobxonlik madaniyati, yozma va og‘zaki savodxonligini oshirish, yosh avlodga o‘zbek tiliga nisbatan milliy g‘urur hissini shakllantirish, ular qalbida umuminsoniy qa-

driyatlariga hurmat-ehtiromni tarbiyalashga, Shuningdek, ijodiy ishlarda chet ellardagi vatandoshlarimiz va o‘zbek tilini sevuvchi xorijliklarning o‘zbek tiliga muhabbati va e‘tiborini namoyish etish, o‘zbek tilining amaldagi xalqaro mavqeyini mustahkamlashga xizmat qilishi lozim.

O‘zbek tilining amaldagi mavqeyini mustahkamlash, shuningdek, davlat tiliga oid muammolarni hal etishga keng jamoatchilikning ijodiy yondashuvini rivojlantirish; ta‘lim muassasalari, davlat idoralari, mehnat jamoalarida namoyish etish hamda xalq orasida keng ommalashtirish uchun o‘zbek tili va adabiyotiga doir ijodiy ishlar jamlanmasini yaratish; iqtidorli yoshlarning ijodiy salo-

hiyatini yuzaga chiqarish va rivojlantirish, ularning davlat tilini targ‘ib qiluvchi ijod namunalarini rag‘batlantirish va ommalashtirish tanlovning asosiy maqsadlaridir.

**Tanlov quyidagi nominatsiyalarda o‘tkaziladi:**

1. Eng yaxshi badiiy asar (she‘riy asar – 30 misragacha; nasriy hikoya – hajmi 3600 bosma belgigacha).

2. Eng yaxshi publitsistik maqola (ocherk, lavha – hajmi 5400 bosma belgigacha).

3. O‘zbek tilining xorijdagi eng yaxshi targ‘iboti (o‘zbek millatiga mansub yoki chet el fuqarolari tomonidan yaratilgan xorijda o‘zbek tilini targ‘ib qilishga qaratilgan



ilmiy, badiiy, musiqiy asarlar hamda audio, video mahsulotlar).

4. Eng yaxshi ijtimoiy roliklar (audio, videorolikning davomiyligi 3 daqiqagacha).

Tanlov g‘oliblari pul mukofotlari bilan taqdirlanadilar. Eng namunali, g‘oyaviy-badiiy pishiq ijodiy ishlar ommaviy axborot vositalari orqali keng targ‘ib etiladi.

Ijodiy ishlar shu yilning 20-sentabriga qadar “Qadring baland bo‘lsin, ona tilim” sar-

lavhasi ostida [info@til.gov.uz](mailto:info@til.gov.uz) elektron pochta yoki [@tiluz\\_bot](https://t.me/tiluz_bot) telegram manzili orqali onlayn qabul qilinadi.

Tanlov yuzasidan qo‘shimcha ma‘lumotlarni [www.til.gov.uz](http://www.til.gov.uz), [www.manaviyat.uz](http://www.manaviyat.uz) saytlari hamda Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining tanlov bo‘yicha mas‘ul xodimlari Muhtaroma Ulug‘ova (99 847-69-41), Dilmurod Do‘stbekov (97 752-33-99) bilan telefon orqali bog‘lanib olishingiz mumkin.

**O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazi  
quyidagi bo'sh (vakant) va tanlov muddati tugagan kafedra mudiri, professor-o'qituvchi lavozimlariga  
TANLOV E'LON QILADI.**

**"Ijtimoiy va mutaxassislik fanlari"  
kafedrasida bo'yicha:**

- kafedra mudiri — 1 ta;
- katta o'qituvchi — 1 ta;
- dotsent — 1 ta;
- o'qituvchi — 1 ta;
- o'qituvchi-stajyor — 3 ta.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi mintaqaviy filiali "Ijtimoiy va mutaxassislik fanlari" kafedrasida bo'yicha:**

- professor — 1 ta;
- dotsent — 1 ta;
- katta o'qituvchi — 1 ta;
- o'qituvchi-stajyor — 1 ta.

**Samarqand viloyati mintaqaviy filiali "Ijtimoiy va mutaxassislik fanlari" kafedrasida bo'yicha:**

- kafedra mudiri — 1 ta;
- dotsent — 1 ta;
- katta o'qituvchi — 1 ta;
- o'qituvchi-stajyor — 1 ta.

**Namangan viloyati mintaqaviy filiali "Ijtimoiy va mutaxassislik fanlari" kafedrasida bo'yicha:**

- kafedra mudiri — 1 ta;
- dotsent — 1 ta;
- katta o'qituvchi — 1 ta;
- o'qituvchi-stajyor — 1 ta.

**Surxondaryo viloyati mintaqaviy filiali "Ijtimoiy va mutaxassislik fanlari" kafedrasida bo'yicha:**

- kafedra mudiri — 1 ta;
- professor — 1 ta;
- dotsent — 1 ta;
- katta o'qituvchi — 1 ta;
- o'qituvchi-stajyor — 1 ta.

**Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi talab etiladi:**

- direktor nomiga ariza;
- xodimlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaq va tarjimai hol;
- oliy ma'lumoti, ilmiy daraja va unvoni haqidagi diplomlar;

• malaka oshirgani haqidagi guvohnoma nusxalari;

- ilmiy ishlari ro'yxati;
- tanlovdan o'tayotgan shaxsning faoliyati haqida hisobot;
- professor-o'qituvchilar darsini o'rganish sifat komissiyasining xulosalari;
- kafedraning professor-o'qituvchi faoliyati, ochiq darslari tahlili muhokamasiga bag'ishlangan majlis qarori;
- pasport kopyasi;
- ma'lumotnoma (obyektivka).

\* Malaka oshirish markazida Respublikada diniy soha xodimlariga dars o'tilishini e'tiborga olib, yuqori salohiyatli hamda Qur'on, hadis, fiqh, kalom, tasavvuf kabi islomshunoslikka oid fanlardan dars o'tish salohiyatiga ega mutaxassislar talab etiladi.

**Tanlov muddati — e'lon chiqqan kundan boshlab 1 oy.**

**Murojaat uchun manzil:** Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy. Telefon: (71) 244-51-45.

**Abdraimova Barno Baxtiyarovnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik diagnostika metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi I.M.Gubkin nomidagi (MTU) Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent shahridagi filiali huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/30.12.2019.T/PED.99.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 19-avgust kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.**  
Manzil: 100125, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Do'rmon yo'li ko'chasi, 34-uy. Tel/faks: (71) 262-70-91, 262-96-63; e-mail: info@gubkin.uz

**Sultanova Guzalxon Saidabbasovnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sharoitida neft-gaz tarmog'i uchun mutaxassislar tayyorlashda pedagogik tashxis metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi I.M.Gubkin nomidagi (MTU) Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent shahridagi filiali huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/30.12.2019.T/PED.99.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 19-avgust kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.**  
Manzil: 100125, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Do'rmon yo'li ko'chasi, 34-uy. Tel/faks: (71) 262-70-91, 262-96-63; e-mail: info@gubkin.uz

**Abdullayeva Simela Xristoforovnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (rus tili) ixtisosligi bo'yicha "Rus tilini o'rgatishda nofilologik OTM talabalarini infokommunikatsion texnologiyasi leksikasiga o'qitish" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 24-avgust kuni soat 12:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-"A" uy. Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu\_info@mail.ru

**Axmedova Nilufar Rasulovna ning 14.00.09 — Pediatriya ixtisosligi bo'yicha "Bolalarda kardiomiopatiyalar: shakllanish, erta tashxislash, bashoratlash mezonlari va korreksiya usullari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 21-avgust soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy. Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

**Axrarova Feruza Maxmudjanovnaning 14.00.09 — Pediatriya ixtisosligi bo'yicha "Biriktiruvchi to'qima displaziyasining kardial ko'rinishlari bo'lgan bolalarda yurak-qontomir kasalliklari shakllanishini klinik-patogenetik asoslash" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 21-avgust soat 13:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy. Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

**Ergasheva Maxsuda Po'latovnaning 22.00.02 — Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi sotsiologiyasi ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda xotin-qizlar faolligini yuksaltirishda jamoatchilik fikrining o'rni va roli" mavzusidagi (sotsiologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.20/30.2019.S.23.02 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 26-avgust kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45-uy.  
Tel/faks: (71) 232-60-47, 239-17-83; e-mail: info@dba.uz

## Ta'lim tizimini isloh qilaylik...

So'nggi kunlarda ijtimoiy tarmoqlarda talabalar harakati "trend"ga chiqdi. Ular oliy ta'lim muassasalarida darslar masofadan tashkillashtirilayotgani uchun universitet budjetidan qo'shimcha to'lovlarga pul sarflanmasligi, qolaversa, onlayn darslar biz uchun yangilik bo'lgani sabab, mashg'ulotlar sifatsiz o'tilayotganini hisobga olib, to'lov-shartnoma summasini kamaytirishni talab qilishdi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi esa bunga "Kontrakt narxi o'zgarmaydi. Oshmaydi va kamaytirilmaydi. Avval qanday bo'lsa, shundayligicha qoladi", deya uzil-kesil javob berdi.

So'nggi paytlarda ta'lim tizimi haqida ko'p gapirilyapti. Agar sohada islohotlar

qilmasak, hali bundan-da ko'p gapiramiz. Xo'sh, nega endi butun dunyo ta'limda onlayn darslarni joriy etganida, biz hali ham internet tezligi muammosiga o'ralashib yuribmiz? Boshqa davlatlar kosmosga raketalarni uchirayotgan bir paytda biz hali respublikani to'liq elektr energiyasi bilan ham ta'minlay olmaganmiz.

Germaniya Napoleon boshchiligidagi Fransiya qo'shinlaridan mag'lubiyatga uchraganida nemislar: "Biz urushda yengildik, demak, ta'lim tizimimizda muammolar bor!" deya bejiz xulosa qilishmagan edi. Tizimni isloh qilaylik...

Guljahon QARSHIYEVA,  
Shahrisabz shahridagi  
18-maktab o'qituvchisi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Iqtisodiyot fakulteti professori Farmonqul Egamberdiyevga turmush o'rtog'i Biologiya fakulteti professori

**Lola EGAMBERDIYEVANing**

vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

## Ehtimom

# Mehribon ustoz va mohir tashkilotchi

Xalqimizda "Bo'lar bola boshidan ma'lum" degan naql bor. Aslida, xalq iboralari yillar sinovidan o'tgach ommalashadi va umrboqiy fikrga aylanadi. Zamondoshimiz, do'stimiz, shogirdimiz — Nozim Qosimov bilan har gal uchrashganda shu satrlar yodga kelaveradi.

Negaki, Nozimjon yoshligidan o'zligini namoyon qila olgan yigit: Qo'qon shahridagi o'rta maktabni bitirib, Qo'qon san'at bilim yurtida tahsil olgan, g'ijjak va fortepiano sozlarining sir-sinoatlarini puxta o'rgangan. 1989-1994-yillari esa Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutida o'qigan, institut yoshlariga yetakchilik qilgan. Ayni aytda ham talaba, ham institut kasaba uyushmasiga rahbarlik qilgan.

Tahsillar natijasida Nozimjon g'ijjak sadosini yurak navosiga aylantira oladigan cholg'uchilardan biri bo'lib yetishdi. Institutdagi milliy cholg'ular orkestri va ansamblda yetakchi sozanda sifatida obro'-e'tibor topdi. Shu bilan birga, milliy cholg'ular va ularning o'zbek xalq og'zaki ijodidagi o'rni to'g'risida ilmiy-tadqiqotlar olib bordi. Natijada 1998-yili professor Bahodir Sarimsoqov rahbarligida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi va filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ldi.

Nozimjon ilm va san'at yo'lidagi izlanishlarini to'xtatmadi. "Xalq ijodiyoti" kafedrasida o'qituvchi, katta o'qituvchi lavozimlarida mehnat qildi. 2003-yildan "Xalq ijodiyoti" kafedrasida dotsenti, 2011-yildan mazkur kafedra professori hisoblanadi.

Jamoada o'z o'rnini topdi. 1994-2000-yillari institut birlashgan kasaba uyushma qo'mitasi raisi vazifasini bajardi. 2000-yildan 2012-yilgacha xalq badiiy ijodiyoti fakulteti dekani lavozimida ishladi. Qanchadan-qancha talabalarga o'z yo'lini topishida yordam berdi, ularning oilaviy hayoti bilan qiziqdi, kam ta'minlangan talabalardan yordamini ayamadi. Bitiruv-malakaviy (ijodiy) ishlari va magistrlik dissertatsiyalariga rahbarlik qildi.

Nozimjon Qosimov ilmiy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarining bilimdoni, o'quv ishlarining tashkilotchisi sifatida nafaqat institut miqyosida, balki respublikamizda ham taniqli mutaxassisga aylandi. Shu sababli ham 2012-2015-yillari O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'quv ishlari bo'yicha prorektori, 2015-2017-yillari O'zbekiston davlat konservatoriyasi o'quv ishlari bo'yicha prorektori lavozimlarida ishladi. Madaniyat hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklarining ishonchli eksperti sifatida respublikamizda oliy ta'lim sifatini oshirishga hissa qo'shdi.

Nozimjon o'z ishing ustasi, mehribon ustoz darajasiga ko'tarilgan shaxs. Hozirgi



paytda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining "San'at nazariyasi va tarixi" kafedrasida magistrarga musiqa tahlili va mutaxassislik fanlaridan dars beradi. U talabalar mehrini qozongan, hamkasblaridan yordamini ayamaydigan inson. Shu sababli ham uning rahbarligida bir qator magistr o'z dissertatsiyalarini a'lo darajada yoqlab, doktoranturaga yo'llanma olishdi.

Nozimjon sinchkov tadqiqotchi bo'lib, ilm-u fan yutuqlaridan o'z mashg'ulotlarida unumli foydalanadi. Ayniqsa, milliy cholg'ularning o'zbek milliy raqsidagi o'rni va ahamiyatini talabalarga puxta tushuntiradi. Raqsga doir materiallardan ilmiy maqola va risolalarida keng foydalanadi. 2019-yili "O'zbek xalq laparlari" nomli monografiyasi chop etildi. Nozim Qosimov 4 ta o'quv yo'llanma, 3 ta uslubiy yo'llanma va ko'plab ilmiy-omgabop maqolalar muallifi. 30 dan oshiq xalq qo'shiqlarini notaga olgan. Shuningdek, 20 dan ortiq musiqiy asarlarni orkestrlar uchun cholg'ulashtirgan.

Nozim Qosimovdan ibrat oladigan jihatlar anchagina. Chunki u jamoaning har bir a'zosi bilan birdek muomalada bo'la oladi: professor-o'qituvchimi, texnik xodim yoki farrosh bo'lsin — hammasining ismini biladi, ulardan har kuni hol-ahvol so'raydi. U ibratli oila boshlig'i, ikki qiz va

bir o'g'ilning otasi, ikki nabiraning sevimli bobosidir.

Nozimjondagi yana bir odat — o'z ustozlariga ko'rsatadigan ehtimomidir. Bu dunyoni tark etgan ustozlarining xotirasini yodga oladi: ularning oila a'zolaridan xabar oladi, imkon qadar moddiy yordam ko'rsatadi.

Nozim Qosimov mana shu qutlug' yoshida ham o'zini shogird hisoblab, ustozlarining fikr-mulohazalariga quloq tutadi. Jumladan, Madaniyat institutiga ko'p yillar rahbarlik qilgan ustozimiz, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi Aziz To'rayev bilan doim bamaslahat ish qiladi.

Bugungi kunda respublika san'at olamida va pedagogik jarayonda o'z o'rniga ega mutaxassis, filologiya fanlari nomzodi, professor Nozim Qosimov o'zining muborak ellik yoshini qarshilayapti. Biz fursatdan foydalanib, Nozimjonga yanada mazmunli umr, oilaviy baxt, mustahkam sog'liq hamroh bo'lsin deymiz. O'zbekning ardoqli shoiri Abdulla Oripov yozganidek:

*Sizga tilaklarimiz, bir jahon bo'lsin,  
Boshingizg' o'ftobli osmon bo'lsin.  
Kunduzning g'aroyib  
chog'idir oqshom,  
Saodat birla u nurafshon bo'lsin!*

Ravshan JOMONOV,  
filologiya fanlari nomzodi,  
professor  
Shavkat UMAROV,  
O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi katta o'qituvchisi

## Xotira

## Ijodkor o'qituvchi xotirasi

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, ijodkor o'qituvchi, qashqadaryolik iste'dodli shoira Nazira O'roqovanning vafotini eshitib, yuragimiz qayg'uga cho'mdi. Albatta, Xudoning amriga bo'ysunmasdan ilojimiz yo'q, ajal haq.



Lekin hali hayotdan umidi ko'p, ko'nglida orzu-havaslari bisyor inson besxosdan olmandan o'tganda ko'ngildan beixtiyor shunday o'y o'tarkan: hali yashashi kerak edi... Nazira ayni ijodiy kamolotga to'lgan, yetarli bilim va tajribaga ega bo'lgan, jamiyatga, farzandlariga ko'p foydasi tegadigan muallima-tarbiyachi va shoira edi. qarshi shahridagi 6-umumta'lim maktabining direktori lavozimida Prezidentimizning ta'lim va tarbiya sohasidagi islohotlarini amalga oshirishda munosib hissa qo'shib kelayotgan edi. Ayni paytda o'quvchilarga ona tili va adabiyotdan saboq berardi. Darslarida innovatsion g'oyalar va zamonaviy ta'lim usullarini hamda o'zi shoira bo'lgani uchun badiiy adabiyot bo'yicha ko'rgazmali materiallar tayyorlab, muvaffaqiyatga erishayotgan ilg'or o'qituvchilardan biri edi. O'z mehnati, bilimi va qobiliyati bilan o'quvchilarning mehrini qozongan ustoz-murabbiy edi. Mehnat jamoasi, ota-onalar uni chin dildan hurmat qilardi. Shu bois viloyatning

eng yaxshi maktablaridan birining rahbari, eng faol o'qituvchisi hamda shoira sifatida nafaqat viloyat, balki respublika miqyosida ham obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan edi.

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning Uyushmaga raislik davrida Nazira O'roqova Respublika yosh ijodkorlarining "Zomin" seminar-kengashida muvaffaqiyat bilan ishtirok etib, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga a'zolikka qabul qilingan edi. Ustozimiz Ikrom Otamurod ko'p yillar bosh murabbiy bo'lgan Ijodkor o'qituvchilar anjumanida Nazira o'z ijodi va murabbiylik faoliyati bilan jamoatchilik nazariga tushgan edi.

Nazira O'roqovanning ajoyib she'riy to'plamlari, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Ma'rifat" gazetalarini, "Sharq yulduzi", "Yoshlik" jurnallarida chop etilgan ijod namunalari kitobxonlarning ma'naviy mulkiga aylangan.

Qashqadaryoda bo'lib o'tgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, adabiyot kunlarini tashkil etishda Nazira

faol ishtirok etib, Prezidentimizning adabiyot haqidagi farmonlari ijrosini ta'minlashga munosib hissa qo'shar edi. Kayvoni, tashkilotchi, zakovatli va nazokatli ayol, ko'ngli ochiq, samimiy va saxovatli inson edi. Hayotida doimo yaxshilik qilishga, odamlarga yordam berishga intilardi.

Hamkasbimiz, qadrdon singlimiz Nazira O'roqova vafoti munosabati bilan marhumaning oila a'zolariga Toshkentda yashab ijod qilayotgan ustozlari, do'stlari va qadrdonlari nomidan hamdardlik bildiramiz. Sabr tilaymiz.

Uning xotirasi qalbimizda yashaydi.

### Ona va muallim

*Shoira Nazira O'roqova xotirasiga*

Umr sha'mi so'ndi, parvona ketdi,  
Opadir, singildir, dugona — ketdi.  
Falak bo'zlab yig'lar, axir, dunyodan  
Ayol ketdi — munis bir ona ketdi.

Ziyo ketdi — nurl takallum ketdi,  
Daryo ketdi — mehri limmo-lim ketdi.  
"Ustozim, onam!" deb yig'lar bolalar,  
O'qituvchi ketdi, muallim ketdi.

Ko'kdagi quyoshning nuri so'nmaydi,  
Dunyoda hayotning guli so'lmaydi.  
Bu dunyoda toki hayot bor ekan  
Ona — muallim umri ado bo'lmaydi.

Iloyo, joylari jannatdan bo'lsin!

Rustam MUSURMON,  
Qoraqalpog'iston xalq shoiri

## Ustoz

Ustozim Xudoynazar Imomnazarov qalbmimning to'ridan joy olgan insonlardan. U kishi matematika fani o'qituvchisi bo'lsa-da, har qaysi kasb egalari, katta-yu kichik hurmat bilan "domla" deb murojaat qilar va hurmat-ehтиrom ko'rsatardi. Ustoz maktabda dars o'tishi bilan birga fanni o'rganishga qobiliyatli o'quvchilarni tanlab, alohida o'z uyida mashg'ulot o'tar edi. Domlaning ta'limini olgan o'quvchilar oliy o'quv yurtlariga tayyor bo'lib borar, kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tishardi. U paytda repetitor deganlari yo'q edi. Men ham ustozim izidan yurib kam bo'lmadim. Garchi o'qituvchilik kasbi o'tgan yillar davomida hayot qonunlarini qoniqtirmagan bo'lsa ham bu kasbdan yiroqlashganim yo'q. Sababi, bu ilmni o'rganish men uchun oson bo'lmagan. Oz bo'lsa ham barakali va shirin bo'lgan bu kasbning noni oila a'zolarim uchun aziz hamda ehtimomli bo'ldi.

Abdurahmon BOBONAZAROV,  
Beshariq tumanidagi  
40-maktabning matematika  
fani o'qituvchisi

## Jangchi pedagog

Bobom, Insopali Karimov sobiq 57-gvardiyachi tank armiyasiga qarashi 29-alohida tank batalyonining aloqachi bo'limma komandiri bo'lgan. Harbiy faoliyatini 1941-yil kuzida Voronej shahrida boshlagan. Goh suvda, goh quruqlikda fashistlar bilan jang qilib, Voronejdan Kyonigsberg shahri (hozirgi Kaliningrad)gacha bo'lgan yo'lni bosib o'tgan. Bu orada bobom Oliy bosh qo'mondonning 18 ta tashakkuromasini olishga va jangovar "Qizil Yulduz" ordeni hamda qator medallar bilan taqdirlanishga muvaffaq bo'lgan. Urushdan qaytgandan so'ng bir necha yil pedagoglik faoliyati bilan shug'ullangan. Bobom Sayfiniso buvimiz bilan olti o'g'lini katta qilib el-yurt taniydigan, xalqdan xizmatini ayamaydigan insonlar qilib tarbiyaladi. Bobomning porloq xotirasini eslashni, yorqin kelajagimiz uchun jangohlarda jon olib-jon berganliklarini xotirlashni o'z burchim deb bilaman.

Xurshida AHMEDOVA,  
Pop tumanidagi 40-maktab o'qituvchisi

# O'ttiz uch yil

## ogohlantirish nimaligini bilmagan "charm to'p" sehgari

1956-yili jahonning nufuzli jurnali "Frans futbol" Yevropada yilning eng yaxshi futbolchisi taqdirlanadigan "Oltin to'p" mukofotini ta'sis etdi. Futbolni yoritadigan jurnalistlar va mashhur murabbiylar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma Angliyaning "Blekpul" jamoasi o'ng qanot hujumchisi qirq bir yoshli Stenli Metyuz yilning eng yaxshi futbolchisi deb topildi.

Futbolchilik faoliyatini ellik yoshgacha davom ettirgan bu mohir o'yinchi hayotida bunday yorqin sahifalar talaygina. Jumladan, u 1965-yili sport faoliyatini yakunlaganda futbolchilar orasida birinchi bo'lib Buyuk Britaniya qirolichasi Yelizaveta II tomonidan ritsarlik unvoniga sazovor bo'ldi. O'sha yili ellik yoshga kirgan buyuk to'p afsungarini faxriy dam olishga kuzatishga bag'ishlangan xayr-lashuv matchida Lev Yashin, Alfredo di Stefano, Ferens Pushkash singari futbol yulduzlari ishtirok etishdi.

Lekin ser Stenli Metyuz faqat futbol maydonida uzoq yil to'p surgani bilan-gina mashhurlik qozongan desak xato bo'ladi, unga o'z davrida to'pni o'zida saqlashi va qatorasiga ko'plab himoyachilarni dog'da qoldirish qobiliyati uchun "dribling qiroli" deb nom berish-gandi. Buyuk futbolchi maydonda o'zini sovuqqonlik bilan tutishi, raqiblariga qo'polik ishlatmasligi bilan hamon Angliyadagi barcha sportchilarga o'rnak sifatida ko'rsatib kelinmoqda. O'ttiz uch yillik faoliyati davomida u biron marotaba ham hakamlardan og'ohlantirish olmagan. Biroq afsonaviy futbolchi hisobida klub va terma jamoa tarkibida qozonilgan katta yutuqlar yo'q hisobi, u to'p surgan jamoalar biron marotaba ham o'z mamlakatida chempionlikka sazovor bo'lmagan, atigi bir marotaba Angliya kubogini qo'lga kiritgan xolos. Bu holat uning 33 yil davomida Angliyaning bor-yo'g'i ikki o'rtamiyona jamoasi tarkibida to'p surgani bilan izohlanadi.

Angliyaning o'rta qismida joylashgan mo'jazgina Xenli shaharchasida 1915-yili sartaresh oilasida tavallud topgan futbol-

chining otasi o'g'lining ham o'z kasbini egallashini orzu qilardi, biroq yosh Stenli asosiy vaqtini tengdoshlari kabi charm to'p izidan quvishga sarflardi. Tezda uning qobiliyatini Xenliga qo'shni bo'lgan Stok-on-Trent shahridagi "Stok Siti" klubi mutaxassislari payqab qolishdi va o'n yetti yoshli Stenli bilan shartnoma imzolashdi. Ikki yildan keyin esa Metyuz Uels-ga qarshi o'yinda Angliya terma jamoasi safida o'zining ilk uchrashuvini o'tkazdi.

1930-1940-yillarda mohir o'ng qanot hujumchisi kutilmagan aldamchi harakatlari bilan Angliya futbolining men-men degan chap qanot himoyachilari yuragiga g'ulg'ula solib qo'ydi. To'g'ri, Stenli Metyuz raqib jamoalar darvozasiga ko'p to'p kiritmasdi, u jamoaviy o'yin tarafdori edi, himoyachilarni aldamchi harakatlari bilan chalg'itib to'pni o'zidan ko'ra qulay vaziyatda turgan sherigiga oshirar, ko'p sonli muxlislari qalbini zabt etardi. Ammo "Stok Siti" jamoasi o'rtamiyonaligicha qolib ketaverdi, buning ustiga tumanli Albion futbol mutasaddilari FIFA rahbarlari bilan masala talashib qolganligi tufayli xalqaro futbol tashkiloti safidan chiqishdi. Shotlandiya, Uels, Irlandiya mamlakatlari ham o'z qo'shnilaridan ibrat olishdi. Shu bois Britaniya orollarida joylashgan birona mamlakat terma jamoasi 1930-, 1934-, 1938-yillarda o'tkazilgan jahon chempionatida ishtirok etmadi, faqat o'rtqlik uchrashuvlari o'tkazish bilan cheklanib qolishdi.

FIFA safiga qaytish faqatgina ikkinchi jahon urushidan so'ng 1946-yili sodir bo'ldi. 1950-yili Angliya terma jamoasi tarkibiga o'ttiz besh yoshli Metyuzni ham kiritgan holda olis Braziliyada



o'tkaziladigan jahon chempionatiga yo'l oldi. Futbol mutaxassislari angliyalik futbolchilar barcha terma jamoalar ustidan osongina g'alabani qo'lga kiritib, jahon kubogini o'z mamlakatlariga olib ketishini bashorat qilishgandi. İlk uchrashuv bu bashoratni ma'lum darajada oqladi, Chili terma jamoasi 2:0 hisobida mag'lubiyatga uchratildi. Ammo ikkinchi uchrashuvda qayd etilgan hisob butun Angliyani karaxt ahvolga solib ko'ydi. AQSh jamoasiga 0:1 hisobida boy berildi. Guruhdagi uchinchi o'yinda ham Ispaniya terma jamoasiga 0:1 hisobida mag'lub bo'lishdi. To'g'ri, dastlabki ikki o'yinda Metyuz ishtirok etmadi, Ispaniyaga qarshi o'yinda asosiy tarkibdan joy olgan futbolchi ruhan tushgan jamoadoshlari harakatlariga yangilik bag'ishlay olmadi.

Yetakchi futbol mutaxassislari Angliyaning muvaffaqiyatsizliklarini 1928-yildan buyon o'tgan davrda jahon futbolida yangi taktikalar yuzaga kelganligi, inglizlar esa undan chetda qolishgani bilan izohlashdi. Shunday qilib mamlakat futbol mutasaddillarining aybi bilan 18 yil mobaynida xalqaro musobaqalardan chetda qolganligi Angliyani boshi berk ko'chaga kiritib qo'ydi.

Braziliyadagi jahon chempionatiga yo'l olganida Stenli Metyuz mamlakat birinchiligida "Stok Siti" sharaflini himoya qilmayotgandi, u 1947-yili "Blekpul" jamoasi o'yinchisiga aylangandi. Bir yil o'tib esa Metyuz Angliyaning eng kuchli o'yinchisi sovrinini qo'lga kiritdi. O'sha 1948-yili u futbolchilik faoliyatidagi ilk bosh sovrinni qo'lga kiritishga yaqin turgandi, biroq Angliya kubogi finaliga yo'l olgan "Blekpul" hal qiluvchi matchda

"Manchester Yunayted"dan 2:4 hisobida mag'lubiyatga uchradi. 1951-yili Angliya kubogi finalida "Blekpul" mamlakatning boshqa bir grand jamoasi - "Nyukasl"ga 0:2 hisobida o'yinni boy berdi. Faqatgina uchinchi urinishda Stenli Metyuz jamoasi angliyalik har bir futbolchi uchun sharaffi bo'lgan sovrinni qo'lga kiritdi. Bu voqea 1953-yilda sodir bo'ldi. O'yin tugashi-ga yigirma minut qolganda "Bolton" 3:1 hisobida oldinda borayotgandi. Shunda Metyuz o'yin tizginini to'pga olishga muvaffaq bo'ldi, uning chaqqon fintlar bilan raqib jarima maydoniga yorib kirib uzatgan to'plarini jamoadoshlari uch bor "Bolton" darvozasiga joylab qo'yishdi, so'nggi uch daqiqada esa raqib jamoa ikki marotaba o'yinni maydon markazidan boshlashga majbur qilindi.

1954-yili Shveysariyada o'tgan jahon chempionatida ishtirok etganida Stenli Metyuz o'ttiz to'qqiz yoshga kirgandi. Mazkur birinchilikning eng qariya o'yinchisi to'p surgan terma jamoa bu gal ancha yaxshi natijalarni qo'lga kiritdi, guruhdan chiqqan Angliya terma jamoasi chorak finalda amaldagi jahon chempioni Urugvayga yo'lni bo'shatib berdi. 1956-yili qirq bir yoshini nishonlagan Angliya birinchi divizioni jamoasi va mamlakat termasi o'ng qanot hujumchisi nufuzli "Frans futbol" haftanomasi Yevropaning eng kuchli futbolchisiga atagan "Oltin to'p"ning ilk sovrinidoriga aylandi. Kelgusi yili esa Stenli Metyuz Angliya terma jamoasini tark etdi. 1957-yilning 15-mayida Daniya terma jamoasiga qarshi Kopengagenda o'tgan o'yinda ingliz futbolchilari yirik hisobda (4:1) g'alaba qozonishdi.

Stenli Metyuz "Blekpul"da 1961-yilgacha to'p surdi, so'ngra ikkinchi divizionga tushib ketgan jonajon jamoasi "Stok Siti" tarkibiga qaytdi. Buyuk futbolchining harakatlari zoye ketmadi, 1963-yili jamoa birinchi divizionga chiqdi. O'shanda Stenli Metyuz qirq sakkiz yoshni qarshilagandi...

Charm to'p afsungarining futbol bilan xayrlashuv matchi "Stok Siti" o'yin-gohida o'tkazildi. Bu o'yinga jahonning eng yorqin yulduzlari tashrif buyurib, buyuk futbolchiga o'z hurmat-ehtiromlarini namoyish etishdi. Keyinchalik Stenli Metyuz ellik besh yoshigacha yuksak saviyada to'p surish imkoniyatini yo'qotmaganligini qayta-qayta isbotladi. 2000-yili vafot etgan futbolchi xotirasi hamon yodga olinib turiladi.

Abdunabi ABDIYEV

## Kurashchilar onlayn bahslashdi

Xorazm viloyati belbog'li kurash federatsiyasi tomonidan onlayn tarzda musobaqa uyushtirildi. Unda 2006-2007-yilda tug'ilgan yosh belbog'li kurashchilar 30 soniya ichida yerga tayangan holda yotib-turish mashqini eng ko'p bajarish bo'yicha o'zaro bellashishdi.

Yakuniy hisoblarga ko'ra, barcha sovrinli o'rnlarni Yangibozor tumanining yosh sportchilari qo'lga kiritishdi. Xususan, 15-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Mardonbek Po'latov birinchi o'ringa loyiq ko'rildi. Shuningdek, 1-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Saidali Polvonov ikkinchi o'rinni egallagan bo'lsa, 15-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Muhammadsharif Jumaboyev va 5-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Muhammadjon Tojiboyevga uchinchi o'rin nasib etdi.

G'olib va sovrindor sportchilar Xorazm viloyati belbog'li kurash federatsiyasining tegishli darajadagi diplom va badiiy adabiyotlar bilan taqdirlanishdi.

Ikrom XUDOYBERGANOV



# Ma'rifat

Xalq ziyolilari gazetasi

## O'zbekiston Respublikasi "Ma'rifat" gazetasi Respublika ta'lim markazi AXBOROT XATI



"Ma'rifat" gazetasi tahririyati Respublika ta'lim markazi bilan hamkorlikda maktab, akademik litsey hamda kasb-hunar maktablari o'qituvchi, o'quvchilarini hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarini ilmiy faoliyatga yo'naltirish, yangi o'quv yilini sifatli tashkil etishga ko'maklashish, uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlash, pedagoglar o'rtasida tajriba almashishga erishish, ilmiy, metodik faoliyatni qo'llab-quvvatlash maqsadida **2020-yil 15-sentabrda "Masofaviy ta'limni tashkil etishda zamonaviy usullar" konferensiyasi** doirasida respublika miqyosida onlayn ilmiy-amaliy anjuman tashkil etadi.



Konferensiyaga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha maqolalar qabul qilinadi:

- I. Ijtimoiy fanlar.
- II. Gumanitar fanlar.
- III. Aniq fanlar.
- IV. Tabiiy fanlar.
- V. Chet tillari.
- VI. Amaliy fanlar.

Konferensiya materiallari elektron kitob shaklida nashr qilinadi. Har bir ishtirokchiga konferensiya to'plami va ushbu konferensiyada ishtirok etganini tasdiqlovchi Diplom onlayn tarzda yuboriladi.

Konferensiyada maqolasi bilan qatnashgan har bir ishtirokchi "Ma'rifat" gazetasi mobil ilovasiga bepul obuna qilinadi!

Tashkiliy qo'mita kelgan materiallarni saralash va tanlash huquqiga ega. Maqolalar 2020-yilning 10-sentabr gacha qabul qilinadi.

Maqolalar info@marifat.uz elektron pochta hamda @Charosxon\_Burxon\_qizi telegram manzili orqali qabul qilinadi.

Maqolaga qo'yiladigan talablar:

- a) imloviy xatolar bo'lmasligi;
- b) matn grammatik va uslubiy jihatdan to'g'ri, tushunarli hamda ilmiy-ommabop uslubda yozilgan bo'lishi;
- d) mavzu hamda muammo to'g'ri tanlanib yoritilgan hamda ko'tarilgan muammoda yangilik (o'ziga xoslik) bo'lishi;
- e) maqolada ko'tarilgan masalaning ishonchli (mantiqiy bahsga kirishilgan, mantiqiy asos keltirilgan, fikrlarda mantiqiy ketma-ketlik) bo'lishi;
- f) yechimi topilmagan muammo yuzasidan kelgusida bajarilishi zarur bo'lgan tadqiqot haqida fikr bildirilgan bo'lishi lozim.

### Maqolani rasmiylashtirish:

1. Maqolaning tili: o'zbek, rus, qoraqalpoq.
2. Hajmi: 3 betdan kam bo'lmagan hajmda.
3. Yozilish tartibi: Microsoft Word dasturi, Times New Roman shrifti, o'lchami 12, interval 1,5.
4. Sahifa o'lchami: o'ng tomondan 3 sm, chap tomondan 1 sm, yuqori va pastdan 2 sm.
5. Maqola sarlavhasi: o'rtada, quyuq, katta harflar bilan.
6. Muallif nomi: maqola sarlavhasidan 1 satr pastda, o'ng tomonda, qiya (muallif familiyasi, ismi, otasining ismi, ta'lim muassasasi nomi (fakulteti, kursi), elektron pochta manzili, telefon raqami).
7. Faqat tahrir hay'atidan o'tgan maqola mualliflariga to'lovni amalga oshirish haqida xabar yuboriladi. Har bir sahifa uchun to'lov miqdori — 10 000 (o'n ming) so'm.

## O'QUVCHILAR VA ABITURIYENTLAR DIQQATIGA!

Gazetamiz o'quvchilari va abituriyentlarga yordam tariqasida yangi "Ma'rifat" repetitori" ruknini tashkil etmoqda. Mazkur rukn ostida oliy o'quv yurtiga qabul imtihonlaridagi majburiy uch fan — ona tili, matematika va O'zbekiston tarixidan topshiriq va testlar muntazam e'lon qilib boriladi. Bu orqali abituriyentlar ushbu fanlarni tizimli va taqvi-

miy asosda o'rganish hamda bilimlarini o'z vaqtida sinovdan o'tkazib, monitoring qilib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, e'lon qilinadigan testlardan variativ sinflar va barcha sinf o'quvchilari uchun sinov testlari sifatida foydalanish mumkin.

Hurmatli abituriyentlar! Imtihonlarga "Ma'rifat" gazetasi bilan birga tayyorgarlik ko'ring!



**Bosh muharrir:** Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150, V-4281. Tiraj: 8658. Hajmi 4 bosma taqoq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

**TELEFONLAR:**  
qabulxonaga — (71) 233-50-55;  
kotiyyat — (71) 233-99-15;  
reklama va marketing bo'limi — (71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

**MANZILIMIZ:**  
100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.  
Web-site: www.marifat.uz

**Dizaynerlar:** Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.  
**Navbatchi muharrir:** Mahmud Rajabov.  
**Navbatchi:** Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
Korxonada manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'ZA yakuni — 21.30 Topshirildi — 21.00

1 2 3 4 5 6

# Ma'rifat

### TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,  
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,  
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.